

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

HA НОСТЫ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

«AQLLI MAHALLA»: YANGILANISH VA XAVFSIZLIK NAMUNASI



Urganchdagi «Olimpiya» mahallasi raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, yuzni va avtomobil raqamini aniqlovchi kameralar hamda yagona kuzatuv tizimi joriy etilgan haqiqiy «aqli mahalla»ga aylandi.

Ilgari juda notinch bo'lgan bu hudud bugun tanib bo'lmas darajada o'zgargan: ko'chalar yorug', hovlilar obod, bolalar maydonchalari gavjum, nuroniylar esa xotirjam sayr qilmoqda.



YOSH DASTURCHILAR BELLASHMOQDA

9-avgust kuni Toshkentda ilk bor Xalqaro informatika olimpiadasi — IOI 2026 start oldi. O'zbekiston mezbonlik qilayotgan musobaqada yuzga yaqin davlatdan kelgan 386 nafar maktab o'quvchisi dasturlash bo'yicha bellashmoqda. 16-avgustga qadar davom etadigan olimpiada doirasida ishtirokchilar murakkab algoritmik masalalarni yechish bo'yicha bir necha soatlik turlarda kuch sinashadi. Bu musobaqa mamlakatimizning

raqamli ta'lim va yosh dasturchilarni tayyorlash sohasidagi imkoniyatlarini xalqaro maydonda namoyish etmoqda.

XORIJLIKLAR QIZIQISHI ORTMOQDA

2026-yilning birinchi yarmida 21 ming 42 nafar chet el fuqarosi ta'lim olish uchun O'zbekiston-

ni tanlagan. Bu bir yil avvalgi ko'rsatkichdan 2,2 barobar yuqori bo'lib, mamlakatdagi oliy ta'lim imkoniyatlariga xalqaro qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi. Ular orasida Turkmaniston fuqarolari 9 ming 207 nafar bilan yetakchi bo'lsa, Hindiston — 3 ming 723, Tojikiston — 1 ming 915 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, Xitoy, Qirg'iziston, Pokiston, Misr, Janubiy Koreya va AQSHdan ham yoshlar O'zbekistonda ta'lim olish uchun kelgan.

Musulmon ZIYO



IIV Hay'ati yig'ilishi

TANQIDIY TAHLIL VA MUHIM VAZIFALAR

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov raisligida vazirlikning navbatdagi Hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi. Joriy yilning ikkinchi choragida amalga oshirilgan vazifalarga bag'ishlangan yig'ilishda hay'at a'zolari, sohaviy xizmat rahbarlari hamda hududiy ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.



Yig'ilishda, birinchi navbatda, 2026-yilning 6 oyida respublika hududidagi kriminogen vaziyat, sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar muhokama qilindi. Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, tezkor-qidiruv tadbirlari va jinoyatlarni fosh etishda tatbiq qilinayotgan yangicha yondashuvlar ijobiy natija berayotgani qayd etildi.

Ta'kidlanishicha, jinoyatchilikka qarshi kurashish, ijtimoiy xavfli jinoyatlarni fosh etish va oldini olish borasidagi yondashuv tubdan o'zgartirilib, jinoyatlarni prognoz qilishning yangi mexanizmi yaratilgani natijasida hisobot davrida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 87 foizi fosh etilib, jabrlanuvchilarning haquhuqlari ta'minlandi.

Xodimlarning tezkorligi, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishi hamda alohida fuqarolarning faolligi tufayli jinoyatlarning aniqlanish ko'rsatkichi 31,4 foizga yaxshilandi. Natijada fuqarolarga yetkazilgan jami 1 trln 365 mlrd so'mlik moddiy zarar qoplab berildi.

Sud va tergov organlaridan yashirilib, javobgarlikdan qochib yurgan qidiruvdagi 5010 nafar shaxs qo'lga olindi. Yashash manzilidan chiqib ketgan va bedarak yo'qolgan 2616 nafar shaxs qisqa fursatlarda aniqlanib, oilasi bag'riga qaytarildi.

Hisobot davri natijalariga ko'ra, 5778 ta (64 foiz) mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Shu bilan

birga, 476 ta mahalla «qizil» toifada qolayotgani keskin tanqid qilindi.

Yig'ilishda Jamoat tartibini saqlash xizmati hamda Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati rahbarlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, bezorilik holatlarini bartaraf etish, joylarda jinoyatchilikning salmog'i yuqoriligicha qolishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha axborotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahri va Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlari Ichki ishlar boshqarmalari rahbarlarining hududlardagi kriminogen vaziyat bo'yicha hisobotlari eshitildi.

Hay'at yig'ilishida bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri – kiberjinoyatlarga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar atroflicha muhokama qilindi.

Vazirlik tizimida 2026-yil «Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yili» deb e'lon qilinib, kiberjinoyatlarning oldini olish, aholi o'rtasida kiberxavfsizlik madaniyatini oshirish va fuqarolarni internetdagi mavjud xavflardan ogohlantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar keskin kuchaytirildi. Markaziy bank bilan hamkorlikda yaratilgan maxsus tizim yo'lga qo'yilgani natijasida 29 trln so'm mablag'ning noqonuniy

ravishda chetga chiqib ketishning oldi olindi hamda 18838 ta jinoyatga aloqador bank plastik kartalari bloklandi. Eng muhimi, 9282 ta kiberjinoyat fosh etildi, fuqarolarga yetkazilgan 120 mlrd 496 mln so'mdan ziyod moddiy zarar undirildi.

Kiberjinoyatlarning oldini olishning asosiy tamoyillaridan biri aholini ogohlantirish ekanligini hisobga olgan holda, keng ko'lamli targ'ibot ishlari amalga oshirilib, qariyb 23 mln nafardan ortiq aholi qamrab olindi.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan ishlar yetarli emasligi tanqid qilindi. Ushbu yo'nalishda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni har

lishini ta'minlash, ularning xizmat vazifalarini vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishi ustidan ta'sirchan nazoratni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, intizomiy holatga ta'sir ko'rsatayotgan omillarni chuqur o'rganish, muammolarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish lozimligi qayd etildi. Ayniqsa, xodimlarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, ular uchun munosib xizmat va maishiy sharoitlarni yaratish, ijtimoiy-huquqiy muammolarini o'z vaqtida aniqlash va amaliy yordam ko'rsatish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi belgilandi.

va qonuniy hal etish, ularning muammolariga befarq munosabatda bo'lgan mas'ullarga nisbatan qat'iy chora ko'rish, samarali ish olib borayotgan xodimlarni esa rag'batlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Hisobot davri natijalariga ko'ra, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygani sababli 6 nafar shahar va tuman ichki ishlar organlari boshlig'i, ularning jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishi bo'yicha 2 nafar o'rinbosari va 2 nafar viloyat ichki ishlar boshqarmalari mas'ul rahbarini lavozimidan ozod etish, 7 nafar rahbarga qattiq intizomiy jazo



tomonlama va puxta o'rganish, kiberjinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan omillarni chuqur tahlil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kiberxavfsizlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari va kiberjinoyatlarni aniqlash hamda ularga qarshi kurashishning yangi usullariga o'rgatish ishlarini jadallashtirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shu bilan birga, kun tartibidagi masalalar yuzasidan xizmat intizomi va qonunchilikka rioya qilish holati bo'yicha mas'ul rahbarlarning hisobotlari tinglanib, mavjud kamchiliklar tanqidiy-tahliliy ruhda muhokama qilindi.

Xodimlar tomonidan xizmat intizomi va qonunchilik talablariga qat'iy rioya etil-

Hay'at yig'ilishida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, shaxsiy va sayyor qabullarni tashkil etish hamda ularning natijadorligini yanada oshirish masalalari ham muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi bilan ochiq va samarali muloqotni ta'minlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqini so'zsiz amalga oshirish va davlat organlari faoliyatida inson manfaatlarini ustuvor ta'minlashga qaratilgan farmoni talablaridan kelib chiqib, murojaatlar bilan ishlash holati tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, ayrim rahbar va mas'ullarning sustkashligi hamda murojaatlarning mazmun-mohiyatiga yetarlicha e'tibor qaratmayotgani tanqidiy baholandi. Fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida, sifatli

hamda 3 nafar rahbarning lavozimida qolish yoki qolmaslik masalasini ko'rib chiqish bo'yicha Hay'at qarori qabul qilindi.

Shu bilan birga, reyting natijalariga ko'ra eng yaxshi natijalarga erishgan Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari, shuningdek, Karmana, Jarqo'rg'on, Quva, Yunusobod, Namangan, Jondor, Piskent hamda Yangiobod tumanlari IIB rahbarlarini o'rnatilgan tartibda rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritildi.

Hay'at yig'ilishida Davlat mustaqilligining 35 yilligini munosib nishonlashga tayyorgarlik ko'rish, bayram tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'ullarga aniq vazifa va topshiriqlar berildi.

IIV Axborot xizmati



Hamkorlik

ISTIQBOLLI LOYIHALAR – TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Respublikasi IIV «Texnik servis ko'rsatish ofisi» davlat muassasasi hamda Toshkent kimyo xalqaro universiteti o'rtasida kadrlar tayyorlash va texnik servis sohasida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.



Hamkorlik doirasida universitetning muhandislik va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun muassasa bazasida o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Shuningdek, dronlar, quyosh panellari, videokuzatuv va telekommunikatsiya tizimlari, lift hamda yong'in xavfsizligi uskunalari bo'yicha texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ko'nikmalarini rivojlantirish, mutaxassislar ishtirokida treninglar, mahorat darslari, o'quv kurslarini o'tkazish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, iqtidorli bitiruvchilarni muassasadagi mavjud ehtiyojlar asosida ishga joylashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

– Bugungi kunda ta'lim muassasamizda tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari, arxitektura, dizayn, iqtisodiyot va moliya, filologiya, biznes va menejment kabi qator yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi, – deydi Toshkent kimyo xalqaro

universitetining muhandislik ta'lim yo'nalishlari rahbari Umid Toshmurotov. – Universitet Koreya Respublikasi, Germaniya, Malayziya, Xitoy, Turkiya, Italiya, Bolgariya, Latviya, Hindistondagi universitetlar hamda ilmiy tashkilotlar bilan ko'plab jabhalarida hamkorlik qiladi. Bugun imzolangan memorandum esa bu boradagi faoliyatni yanada kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Hamkorlik memorandumi nafaqat nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash, balki mamlakatimizda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy texnik xizmat ko'rsatish sohasi uchun raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Kelajakda bu kabi qo'shma tashabbuslar iqtidorli yoshlarning o'z salohiyatini to'laqonli yuzaga chiqarishi hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Gulnoza TURGUNBOYEVA,
o'z muxirimiz.

Amaliy seminar

INNOVATSION YONDASHUV

Qashqadaryo viloyati IIB tasarrufidagi «Yulduzcha» MMTda «Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion va tarbiyaviy yondashuvlar» mavzusida amaliy seminar bo'lib o'tdi. Unda vazirlik tizimidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar dastlab «Yulduzcha» MMTda yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan zamonaviy pedagogik usullar bilan yaqindan tanishdilar. Bu jarayon ko'rgazmali vositalar, ochiq mashg'ulotlar hamda amaliy namoyishlar orqali havola qilindi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, ekologiya, yo'l harakati va yong'in xavfsizligi yo'nalishlarida tashkil etilgan ko'rgazmali burchaklar, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning ijodiy-amaliy mashg'ulotlari mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, «Neptun» suv bayrami sahna ko'rinishi hamda karate va shaxmat bo'yicha ko'rgazmali chiqishlar namoyish qilindi.

– Tahlillarga ko'ra, bola hayoti davomidagi eng zarur bilim va ko'nikmalarni asosan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda shakllantiradi, – deydi «Yulduzcha» MTT direktori Go'zal Ilhomova. – Muassasamizda nafaqat davlat ta'lim standartlari, balki xorijiy tajribalardan ham samarali foydalanilgan holda bilim va tarbiya berilayotgani jamoamizning muhim yutug'idir.

Seminarning ikkinchi kuni Qarshi shahridagi «Sulton saroy» mehmonxonasi majlislar zalida davom etdi. Unda ishtirokchilarga «Yulduzcha» MTTda STEM, «Xitoy» va «Liko-

va» metodikalari asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonlari taqdim etildi. Taqdimotlarda bolaning individual xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olish, har bir tarbiyalanuvchining xatti-harakatini to'g'ri baholash hamda ularning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Seminarida ta'lim bilan bir qatorda tarbiya masalasiga ham ustuvor ahamiyat berildi. Xususan, bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, davlat bayrog'i va tarixiy qah-

chiqishlar vositasida tashkil etildi. Bu esa o'z muassasalarimiz faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan samarali usullar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi, – deydi Jizzax viloyati IIB tasarrufidagi 40-sonli MTT direktori N. Prokudina.

Ikki kun davomida pedagoglar o'zaro fikr va tajriba almashib, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, samarali metodikalardan foydalanish hamda qulay ta'lim muhitini yaratish bo'yicha o'z takliflarini bildirdilar.

Seminar yakunida ko'p yillik samarali mehnati, bolalar qamrovini tizimli tashkil etgani va tashabbuskorligi bilan alohida ajralib turgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari vazirlik rahbariyati tomonidan tashakkurnoma va esdalik



ramonlar haqidagi tasavvurlarini boyitishga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlar o'tkazildi. Bolalarni kasbga yo'naltirish maqsadida ichki ishlar organi xodimi faoliyati bilan tanishtiruvchi mini-ekskursiyalar va rolli o'yinlardan foydalanish tajribasi namoyish qilindi.

– Tadbir faqat ma'ruza va taqdimotlar bilan cheklanmay, bevosita amaliy mashg'ulotlar, ko'rgazmalar va interaktiv

sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Ishtirokchilar uchun ma'naviy-ma'rifiy va madaniy dastur ham tashkil etilib, mehmonlar Qarshi tumanidagi Abu Muin an-Nasafiy ziyoratgohi hamda Shahrisabz tumanidagi «Miraki» turistik hududida bo'ldilar.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

TIZIM FAOLIYATIDAN LAVHALAR



Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar organlari inspektor-psixologlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish borasidagi amaliy va nazariy o'quv amaliyotlari yakunlanib, ularga sertifikatlar tantanali ravishda topshirildi.



IIV huzuridagi Migratsiya va personalallashtirish departamentida fuqarolarni qiynab kelayotgan dolzarb muammolarni aniqlash, ularni joyida bartaraf etish maqsadida sayyor qabul tashkil etildi.



IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti yo'lovchi poyezdlarini kuzatish batalyoni HPG inspektori, kapitan Sherzod Xudayberganov hamda 764-sonli «Afrosiyob» tezyurar poyezdi boshlig'i Shohrux Zokirov «Toshkent–Qarshi» yo'nalishidagi «Afrosiyob» tezyurar poyezdining 9-vagonida bir yo'lovchining sumkasi qolib ketganligini aniqlashdi.



«AQLLI MAHALLA»: YANGILANISH VA XAVFSIZLIK NAMUNASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Raqamli nazorat ostida

Maydoni 42,8 gektarlik «Olimpiya» mahallasida bugungi kunda 30 ta ko'p qavatli uy va 1122 ta hovli-joy mavjud bo'lib, ularda 1564 ta oila yashaydi.

Hududda xavfsizlikni ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar qilindi. 78 ta kirish yo'lagiga domofon o'rnatildi. Jami 109 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, avtomobillarning davlat raqami va kishi yuzini tanib olish texnologiyalari ham tizimga kiritilgan. Kameralar «Xavfsiz shahar» markaziga ulangan, 72 tasi profilaktika inspektorining xizmat xonasidan ham kuzatiladi.

Kamera ko'radi, tizim ma'lumot beradi

Mahalla profilaktika katta inspektori, kapitan Siroj Masharipovning fikricha, bugungi kunda soha xodimlarining faoliyati ham tubdan o'zgarib qoldi.

– Ilgari profilaktika inspektori aholi tasavvurida faqat huquqbuzarlik sodir bo'lganida kelib bayonnoma tuzuvchi xodim sifatida qaralardi. Hozir esa u zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini puxta o'zlashtirgan, shu bilan birga, aholi orasida yurib, xalq ishonchini qozona oladigan mutaxassis bo'lishi kerak.

Kapitan xizmat xonasidagi monitorlarga ishora qilib, hududning katta qismini bir vaqtning o'zida to'liq kuzatib borish imkonini yaratilganini ta'kidlaydi.

– Kamera ko'radi, tizim ma'lumot beradi, sun'iy intellekt tahlil qiladi. Lekin odamning dardini baribir odam tinglaydi. Texnologiya profilaktika inspektorining o'rnini bosmaydi, balki imkoniyatini kengaytiradi. Imjini yaratish uchun faqat xizmat libosi kiyish yetarli emas, u odamlarning ishonchi, hudud osoyishtaligi va amalga oshirilgan ishlar natijasi bilan shakllanadi. Nuroni ham, yosh ham, xotin-qizlar ham inspektorga bema'lol murojaat qila olsa, haqiqiy imij mana shu.

Profilaktika inspektori mahallaning kechagi va bugungi holatini ham yaxshi bilishini qo'shimcha qiladi:

– Ilgari bu hudud notinch edi, janjal-to'polon ko'p bo'lardi, odamlar kechqurun yurishga hadiksirardi. Hozir esa tamoman boshqacha. Eng muhimi, aholining mahallaga munosabati o'zgardi. Bizga ham ishlash uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan: texnologiya bor, tizim bor,

imkoniyat bor. Bahonaga o'rin yo'q, faqat sidqidildan ishlasak bo'lgani!

Hudud «sariq» toifada

Mahallada jinoyatchilik deyarli butkul jilovlangan: hozirgacha ehtiyotsizlik oqibatida telefon yo'qolishi bilan bog'liq birgina holat qayd etilgan bo'lib, hudud «sariq» toifaga kiritilgan.

Profilaktika hisobida 21 nafar fuqaro (probatsiya nazoratidagilar, ichkilikka ruju qo'rganlar, giyohvandlikka moyil shaxslar hamda nizoli oilalar) mavjud. E'tiborlisi – ajrashishlar umuman qayd etilmagan, ajrashish yoqasiga kelib qolgan ikki oila yarashtirilgan.

Bu kabi ko'rsatkichlar zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda manzilli profilaktika va fuqarolar bilan individual ishlash naqadar muhimligini ko'rsatadi.

«Aqlli»lik faqat kameralarda emas

«Olimpiya» mahallasidagi o'zgarishlarni kuzatuv kameralari bilangina bog'lash to'g'ri bo'lmaydi – bunyodkorlik ishlari ham bor. Hududdagi



19 ta ko'p qavatli uyning fasadi to'liq ta'mirlanib, 78 ta kirish yo'lagi yangilandi, jami 0,8 kilometr piyodalar yo'lagi barpo etildi.

Shuningdek, mahallada 3 ta Workout va 10 ta bolalar maydonchasi, 10 ta ayvoncha, «Vatanparvarlar bog'i» va amfiteatr tashkil etildi. Hovlilarga o'rnatilgan o'rindiqlar yonidagi QR-kodlar orqali kitoblarni mutolaa qilish mumkin. Tungi yoritkichlar esa aholining kechki sayrlarini xavfsiz va fayzli qiladi.

1122 ta xonadonning barchasi markazlashgan elektr energiyasi, ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan to'liq ta'minlangan. Hududda umumta'lim maktabi, davlatga tegishli hamda xususiy bog'chalar, shuningdek, futbol, voleybol va stritbol maydonlari faoliyat ko'rsatmoqda.



Shu bois, «Aqlli mahalla» tushunchasiga faqat raqamli nazorat sifatida qarash noto'g'ri. Xavfsizlik, obodonlashtirish, bandlik, ijtimoiy himoya va sifatli xizmatlar bir tizimga birlashtirish mahalla chinakam qulay hamda farovon hayot maskaniga aylanadi.

Ishsizlikdan xoli

Mazkur mahalladagi obyektlar asosan savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lib, hududda 85 ta tadbirkorlik subyekti hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi 18 ta turli shoxobcha faoliyat yuritmoqda. Mahallada aniqlangan 43 nafar ishsiz fuqaroning bandligi to'liq ta'minlandi, aholiga ssuda, subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratildi. Joriy yilda 9 ta mikroloyiha amalga oshirilib, 27 ta yangi ish o'ri yaratildi.

– Tadbirkor ish-

lasa, fuqaro daromad topsa va hududning o'zida xizmatlar rivojlansa, ko'plab ijtimoiy muammolar o'z-o'zidan kamayadi. Asosiy maqsad faqat soliq undirish emas, balki faoliyati to'xtagan subyektlarni qayta ishga tushirish va yangi ish o'rinlarini yaratishdir, – dedi Urganch shahar soliq inspeksiyasi boshlig'i Sardor Abdullayev.

Texnologiya va qonuniylik

Zamonaviy kuzatuv tizimlari keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Lekin har qanday raqamli tizimdan foydalanishda qonuniylik va fuqarolarning huquqlariga so'zsiz rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Urganch shahar prokurori Mirza Vapayev bu borada shunday fikr bildirdi:

– Raqamlashtirishning ahamiyati huquqbuzarlik sodir etilganida aybdorni topish bilan cheklanmasligi kerak. Uning eng katta samarasi – shunday holatlarning oldini olishdir. Shu bilan birga, ilg'or texnologiyalardan foydalanishda qonuniylik, shaxsiy ma'lumotlarning ishonchli himoyasi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga qat'iy amal qilinishi shart.

Bosh maqsad – jinoyatlarning barvaqt oldini olish

Urganch shahar IIB boshlig'i Muzaffar Achilov ham profilaktikaning asosiy mezonini jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik ekanini qayd etadi:

– Ichki ishlar organlari uchun eng muhim natija faqat yuz bergan jinoyatni ochish emas, avvalo uning oldini olishdir. «Olimpiya»dagi yangi tizim profilaktika inspektoriga hududni tezkor nazorat qilish imkonini beradi, biroq kamera uning o'rnini bosmaydi. Inspektor odam bilan yuzma-yuz gaplashadi, oila muhiti bilan tanishadi, muammo sababini o'rganadi. Texnologiya esa unga ana shu vazifalarni bajarishda ishonchli ko'makchi bo'ladi.

Uyg'un tizim

Urganch shahar hokimi Bunyod Rajapov «Aqlli mahalla» konsepsiyasini fuqarolar hayotidagi real o'zgarishlar bilan bog'laydi:

– «Aqlli mahalla» deganda faqat kamera va kompyuterni tushunmaslik kerak. Inson ko'chada xavfsiz yuradimi, farzandi o'ynashi uchun maydoncha bormi, ko'chasi yorug'imi, o'ziga munosib ish topa olyaptimi – natija aynan shular bilan o'lchanadi. «Olimpiya»da texnologiya, xavfsizlik va obodonlashtirishni o'zaro uyg'un tizimga aylantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.



Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

Kasbidan kamol topganlar

SHARAFLI UMR YO'LI

Ichki ishlar organlarida xizmat qilishdek murakkab va sharaflı yo'lnı tanlab, umrını el-yurt tinchligını asrashga bag'ishlagan insonlardan biri – iste'fodagi polkovnik Shokirjon Inag'omovdir.

Bolaligidan adolat va qonun ustuvorligını himoya qilish orzusida kamol topgan qahramonimiz 17 yoshidayoq ichki ishlar organları safıga qabul qilindi. Kasbiy bilim va ko'nikmalarsiz sohada yutuqlarga erishib bo'lmasligını anglagan holda, u 1976 – 1980-yillarda Omsk oliy militsiya maktabida tahsil olib, huquqshunoslik sirlarını, jinoyatlarnı ochish taktikasını hamda tezkor-qidiruv faoliyatını chuqur egallab, malakali mutaxassis bo'lib yetishdi.

Oliy maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan yosh leytenant Ichki ishlar vazirligi Jinoyat qidiruv boshqarmasi inspektori lavozimiga tayinlandi. Shundan e'tiboran uning tezkor xizmatdagi sermashaqqat faoliyati boshlandi. U qidiruv bo'yicha inspektor, katta tezkor vakil lavozimlarida kechayu kunduz tinim bilmay xizmat qildi. Sinchkovligi, tezkor vaziyatni to'g'ri baholay olishi va jinoyatni izi sovimay ochish mahorati sabab bo'lim boshlig'i o'rinbosari lavozimiga ko'tarildi.

Yurtimizda davlatchilik tizimi qayta shakllanayotgan 1990-yillar boshida u jinoyatchilarni, bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirib topish hamda



murdalar shaxsini aniqlashda fidoyilik ko'rsatdi. Uning sa'y-harakatlari evaziga yuzlab og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar fosh etildi.

Istiqlolning dastlabki yillarida IIV Markaziy apparatida tashkilotchilik salohiyati va yuksak intizomi bilan ajralib turgan Sh.Inag'omov 1994–1997-yillarda JQB boshlig'i o'rinbosari lavozimida samarali faoliyat yuritdi. So'ngra

Kotibiyat boshlig'i sifatida vazirlikda ish yuritish, buyruqlar ijrosini ta'minlash va hujjatlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirishda uning xizmati beqiyos bo'ldi. Shuningdek, Shaxsiy tarkib bo'yicha maxsus inspeksiya boshlig'i lavozimida xizmat qilib, tizimda qonuniylik va xizmat intizomini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi.

2005-yilda Farg'ona viloyati IIB boshlig'i lavozimiga tayinlanganidan so'ng polkovnik Sh.Inag'omov hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda aholining huquq-tartibot organlariga bo'lgan ishonchini oshirishda o'zining yuksak rahbarlik va insoniylik fazilatlarini namoyon etdi.

2007-yildan 2014-yilgacha bo'lgan davrda u IIV JQ va TQKBB boshlig'i o'rinbosari – narkotrafik va giyohvandlik moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritdi. Xalqaro va transmilliy narkoto'dalarga qarshi kurashish hamda giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasi oldini olish bo'yicha ko'plab yirik tadbirlar aynan uning bevosita rahbarligi va operativ nazorati ostida muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Lavhamiz qahramoni 38 yillik sermashaqqat va sharaflı xizmatdan so'ng 2014-yilda pensiyaga kuzatildi. U boy xizmat tajribasi orqali va eng muhimi – hamkasblari hamda shogirdlarining samimiy hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ldi.

Iste'fodagi polkovnik Shokirjon Inag'omovning mashaqqatli xizmat yo'lida erishgan muvaffaqiyatlarida, shubhasiz, oilasining o'rni beqiyos. U turmush o'rtog'i Munira opa Inag'omova bilan birga ikki o'g'il va bir qizni komil insonlar qilib tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Bugungi kunda qahramonimiz 11 nafar nevara, 1 nafar evaraning suyukli bobosi sifatida umr kechirmoqda.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Bir surat tarixi

IZ QOLDIRGAN USTOZLAR

IIV Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi xizmatida uzoq yillar fidokorona mehnat qilgan fidoyi insonlar qatorida polkovniklar Valijon Toshmatov (marhum) va Shokir Inag'omovlarni eslash juda o'rinli.

Valijon Toshmatov umrining asosiy qismini IIVning eng muhim bo'g'inlaridan biri – Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasida turli rahbarlik lavozimlarida, xususan, bosh boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari sifatida uzoq yillar samarali xizmat qildi. Iste'fodagi polkovnik Shokir Inag'omov ham ushbu bosh boshqarmaning Narkotiklarga qarshi kurashish boshqarmasiga rahbarlik qilgan tajribali polkovniklardan biri edi.

Ular ko'p yillik samarali xizmatlari davomida respublika-

mizda jinoyatchilikni jilovlash, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, ko'plab samarali tezkor tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga bosh-qosh bo'lgan fidoyi rahbar kadrlar edi. Bu ikki professional rahbar faoliyat yuritgan davrda respublikamizda uyushgan jinoyatchilikning sezilarli darajada kamayishiga erishilgani ko'pchilikka ma'lum.

Fidokorona xizmatlari uchun har ikki ustoz ham davlatimizning turli mukofotlari bilan munosib taqdirlanganlar.

Bugungi kunda ustozlar yaratgan boy tajriba va xizmat maktabini yuzlab shogirdlari munosib davom ettirmoqda.

Siz ko'rib turgan ushbu surat 2011-yil 4-avgust kuni tarixga muhrlangan.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.



OBODLIK KO'NGILDAN BOSHLANADI

Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda mahalla yettiligi faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Shuningdek, Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi oldidan respublikamiz bo'ylab «Mahallada obodlik va mehr-saxovat» oyli o'tkazilishi e'lon qilindi.



Mazkur tashabbus doirasida Arnasoy tumani viloyat IIBga birlashtirilgan hududda tozalik va obodonlashtirish ishlari jadal boshlab yuborildi. Tumandagi 11 ta mahallaning har biriga sohaviy xizmat rahbarlari mas'ul etib birlashtirildi. Eng avvalo, mahallalar infratuzilmasidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish orqali aholi og'irini yengil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

O'rganishlarda tuman markazidan 46 kilometr uzoqlikda joylashgan «Tinchlik» mahallasida sug'orish tizimi og'ir ahvolda ekani ma'lum bo'ldi.

– O'tgan yili «Obod mahalla» dasturi doirasida hududimiz to'liq ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Qahramon Shomurodov. – Ammo tomorqadan foydalanish, daraxtlarni sug'orishda oqova suv muammosi aholini qiynab kelayotgandi. Quvurlar eski va yaroqsiz holga kelib qolgani sababli oqova suv bizgacha deyarli yetib kelmadi. Oylik doirasida bu masala ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy yordami bilan ijobiy hal etildi. Dolzarb muammoni bartaraf etishga hissa qo'shgan insonlardan juda minnatdormiz.

Hududga 1450 metr uzunlik-

dagi yangi suv tarmog'i tortildi. Natijada mahallaning Garasha ko'chasi to'liq yangi sug'orish tizimiga ega bo'ldi. Endilikda 42 ta xonadon, mahalla idorasi, 9-sonli maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi hamda yashil hududlarda sug'orish bilan bog'liq muammo bo'lmaydi.

Ayni paytda «Tinchlik»-da ko'chalar va ichki yo'llarni ta'mirlash, ariq-zovurlarni tozalash, jamoat joylarini tartibga keltirish va hududni ko'klamzorlashtirish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar davom ettirilmoqda. Maxsus texnikalar yordamida noqonuniy qurilmalar olib tashlanib, ko'cha bo'ylab joylashgan devorlar bo'yalayotgani mahallaning qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda.

Navbatdagi bosqichda yangi uy-joylar qurilayotgan 20 xonadonli ko'chaga oqova suv tarmog'ini tortish rejalashtirilgan. Oylik yakuniga qadar bu masala ham to'liq o'z yechimini topadi.

Bu kabi xayrli ishlarda mas'ul tashkilotlar, mahalla faollari hamda keng jamoatchilikning hamjihatligi tumanning yanada obod va ko'rkam go'shaga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Yoshlar — yurt kelajagi

ENG SHARAFLI BURCH

Leytenant Samandar Hojiyev viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi katta inspektori lavozimida faoliyat yuritadi.

– Har doim xizmatga chiqqanimizda xalqimizning ishonchi va yurtimiz tinchligi uchun mas'ul ekanimizni chuqur his qilamiz, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ana shu yuksak ishonchni oqlash, halol va vijdonan xizmat qilish hayotiy tamoyilimiz hisoblanadi.

Kelgusida bilim va tajribasini yanada boyitish, zamonaviy texnologiyalarni puxta egalashni maqsad qilgan Samandarning hayot yo'li bugungi yoshlar uchun munosib ibrat-



dir. Uning fikricha, yuksak natijalarga erishish aniq maqsad, tinimsiz mehnat va Vatanga muhabbatdan boshlanadi. Zero, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish va xalq ishonchi-

ni oqlash har bir yoshning eng sharaflil burchidir.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

INTILISH – ORZULAR QANOTI

Yoshlikda ko'rsatilgan e'tibor, berilgan to'g'ri yo'l-yo'riq va amaliy ko'mak, ayniqsa ijtimoiy xavfguruhiga kiruvchi har bir yoshning kelajagini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois viloyatda bunday yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini o'rganish, bandligini ta'minlash, huquqiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

– Bugungi kunda viloyat IIBga birlashtirilgan 1249 nafar yosh bilan yakka tartibda ishlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, har birining muammo va qiziqishlari alohida o'rganilmoqda. O'rganishlar natijasiga ko'ra ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun

hal etish bo'yicha mas'ul tashkilotlar, hokimliklar, hamkor idoralar hamda mahalla yettiligi bilan birgalikda amaliy ishlar olib borildi. Natijada 302 nafar yoshning turli muammolari ijobiy hal etildi.

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash va huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida hududlarda 157 ming nafardan ziyod yoshni qamrab olgan 3215 ta ma'naviy-ma'rifiy, sport, vatanparvarlik va harbiy yo'nalishdagi tadbirlar o'tkazildi.

Uquv va qobiliyat bo'lgani bilan intilish bo'lmasa, orzular ushalmaydi. Shu bois, yoshlar bilan ishlashda faqat nazorat qilish emas, balki ularni tushunish, qobiliyatini



imkoniyatlar yaratilyapti. Jumladan, ayrim yoshlar IT, zamonaviy kasblar va xorijiy tillarni o'qib-o'rganishga yo'naltirildi. Boshqalari esa o'zini o'zi band qilish, tartibli mehnat migratsiyasi, ta'lim va harbiy xizmat yo'nalishlariga jalb etildi, – deydi viloyat IIB HPB JXX Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlashni tashkil etish bo'limi MTB inspektori, mayor Azizbek Oxunov.

O'rganishlar davomida ularning 611 ta ijtimoiy va iqtisodiy muammosi aniqlandi. Ularni

amalga oshirishiga ko'maklashish ularda o'z kelajagiga ishonch uyg'otadi. Ayniqsa, vaqtida to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, imkoniyat berilsa, e'tibor va g'amxo'rlik bilan qo'llab-quvvatlansa, u albatta jamiyatning faol va munosib a'zosiga aylanadi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



AXBOROT XAVFSIZLIGI VA MEDIASAVODXONLIK

Bugungi kunda axborot jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Inson ertalab uyg'onishi bilan telefonidagi xabarlarni ko'radi, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar bilan tanishadi, kun davomida turli elektron platformalardan foydalanadi, ish va ta'lim jarayonida raqamli ma'lumotlar bilan ishlaydi. Shu tariqa axborot insonning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, dunyoqarashi va qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omilga aylandi.

Bir qarashda axborot imkoniyatlar eshigini ochadigan kuch sifatida namoyon bo'ladi. Biroq axborotning hajmi ortib borgani sari uning tarkibidagi ishonchsiz, soxta, manipulyativ va zararli ma'lumotlar ham ko'paymoqda. Shu sababli zamonaviy jamiyat oldida ikki muhim vazifa turadi. Birinchisi – axborot va raqamli tizimlarni tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilish. Ikkinchisi esa insonni yolg'on, manipulyativ va zararli axborot ta'siridan asrash. Birinchi vazifa axborot xavfsizligi tushunchasi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi mediasavodxonlik orqali amalga oshiriladi.

Axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik bir-biridan ajralgan ikki alohida yo'nalish emas. Ular o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi himoya mexanizmlaridir. Texnik vositalar kompyuter, telefon yoki ma'lumotlar bazasini himoya qilishi mumkin. Ammo inson ongingi, uning qarashlari va qarorlarini faqat bilim, tanqidiy fikrlash va axborotni to'g'ri baholash ko'nikmalari orqali himoya qila oladi.

AXBOROT MAYDONIDAGI YANGI TAHDIDLAR

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi axborot almashinuvini tezlashtirdi. Ilgari ma'lum bir xabarni keng auditoriyaga yetkazish uchun gazeta, radio yoki televideniye kabi ommaviy axborot vositalari zarur edi. Bugun esa smartfon va internetga ega har qanday shaxs bir necha soniya ichida minglab, hatto millionlab odamlarga axborot tarqatishi mumkin. Bu demokratik mulqot, fuqarolik faolligi va erkin axborot almashinuvi uchun katta imkoniyatdir. Biroq ayni paytda nazoratsiz, tekshirilmagan va zararli kontentning ommaviy tarqalishi uchun ham sharoit yaratadi.

Bugun axborot maydonida uchraydigan asosiy tahdidlardan biri – **feyk xabarlar**dir. Feyk xabar haqiqatga mos kelmaydigan, ataylab yoki bilmasdan tarqatiladigan axborotdir. Ba'zan bunday xabar mutlaqo to'g'ri chiqariladi. Ayrim holatlarda haqiqiy voqeaning ma'lum qismi olinib, unga noto'g'ri ma'no beriladi. Shu tariqa xabar tashqi ko'rinishidan ishonchli bo'lib ko'rinadi, ammo uning mazmuni auditoriyani chalg'itishga xizmat qiladi.

Axborot maydonidagi yana bir tahdid – **manipulyatsiyadir**. Manipulyatsiyada axborot to'liq yolg'on bo'lmazligi mumkin. Ammo faktlar ataylab tanlab beriladi, muayyan ma'lumotlar yashiriladi, voqea bir tomonlama talqin qilinadi. Natijada auditoriyaga ma'lum bir xulosa majburan singdiriladi. Masalan, muayyan hodisa haqida faqat salbiy ma'lumotlar berilib, ijobiy yoki muqobil nuqtayi nazarlar tilga olinmasligi mumkin. Yoki statistik raqamlar umumiy sharoitdan uzib olinib, vaziyatni aslidan og'ir yoki yengil ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bunday yondashuv axborotni soxtalashtirishdan ko'ra murakkabroq,

chunki unda haqiqiy faktlar ham mavjud bo'ladi.

Bundan tashqari, kiberfiribgarlik, fishing, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, soxta veb-saytlar, qalbaki investitsiya loyihalari va telefon orqali aldash holatlari ham axborot xavfsizligining dolzarb muammolaridandir. Jinoyatchilar ko'pincha foydalanuvchining ishonuvchanligi, shoshqaloqligi yoki raqamli bilimlari yetarli emasligidan foydalanadi. Demak, axborot xavfsizligiga tahdid faqat texnik qurilmadan kelmaydi. Ko'p hollarda eng zaif bo'g'in insonning o'zi bo'ladi.

MEDIASAVODXONLIK NIMA?

Mediasavodxonlik – insonning ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali tarqatilayotgan axborotni topish, tushunish, tahlil qilish, baholash, yaratish va mas'uliyat bilan tarqatish qobiliyatidir.

Bu faqat gazeta o'qish yoki internetdan foydalanishni bilganlikni anglatmaydi, axborotning kim tomonidan, qanday maqsadda, qaysi vositalar orqali va kim uchun tayyorlanganini anglashni ham talab qiladi. Mediasavodxon inson xabar mazmuni bilan birga uning shakliga ham e'tibor beradi. Sarlavha qay darajada xolis? Surat voqeaqa tegishlimi? Muallif kim? Manba ko'rsatilganmi? Boshqa ishonchli nashrlar ham shu voqea haqida xabar berganmi? Matnda fakt va shaxsiy fikr qay darajada ajratilgan? Bu kabi savollar axborotni to'g'ri baholashga yordam beradi.

Mediasavodxonlikning asosida tanqidiy fikrlash yotadi. Tanqidiy fikrlash har bir axborotni inkor qilish yoki hammaga shubha bilan qarash degani emas. U dalillarni tekshirish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish, mantiqiy bog'lanishlarni ko'rish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. Mediasavodxon inson axborotni hissiyot asosida emas, dalillarga tayanib baholaydi. U yoqimli fikrni haqiqat deb, yoqimsiz ma'lumotni yolg'on deb qabul qilmaydi. Aksincha, o'z qarashlariga mos kelmaydigan axborotni ham o'rganishga tayyor bo'ladi.

YOSHLAR VA BOLALARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI

Yoshlar raqamli texnologiyalardan eng faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Ular ijtimoiy tarmoqlar, videoplatfomalari va messengerlarda ko'p vaqt o'tkazadi. Bu muhit ularning dunyoqarashi, qadriyatlarini, til madaniyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar va o'smirlar har doim ham reklama, ko'ngilochar kontent, blogger fikri va haqqoniy axborot o'rtasidagi farqni anglay olmaydi. Ayrim bloggerlar mahsulot yoki xizmatni reklama qilgan holda uni shaxsiy tavsiya sifatida ko'rsatishi mumkin. Yosh auditoriya esa bunday yashirin reklamani haqqoniy fikr deb qabul qiladi. Shuningdek,

zo'ravonlikni oddiylashtiruvchi, xavfli xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi, inson qadr-qimmatini kamsituvchi yoki yolg'on muvaffaqiyat tasavvurini yaratadigan kontent ham bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ota-onalarning vazifasi bolani internetdan butunlay uzib qo'yish emas. Bunday yondashuv zamonaviy sharoitda samara bermaydi. Aksincha, bolaga axborotni to'g'ri tanlash, xavfli kontentni anglash, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va notanish insonlar bilan ehtiyotkor muloqot qilishni o'rgatish lozim.

Maktablarda ham mediasavodxonlikni alohida mavzular doirasida emas, turli fanlarga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Masalan, tarix darsida manbalarni solishtirish, ona tili darsida matndagi manipulyativ iboralarni tahlil qilish, informatika darsida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini o'rgatish mumkin.

ANIQLIK VA ISHONCHLILIK BIRINCHI O'RINDA

Professional jurnalistika axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim institut hisoblanadi. Jurnalstning vazifasi faqat voqea haqida xabar berish emas, balki uni tekshirish, manbalarni solishtirish, turli tomonlarning pozitsiyasini o'rganish va jamoatchilikka xolis axborot taqdim etishdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik asosiy ustunlikka aylangan bo'lsa-da, jurnalistika uchun aniqlik va ishonchlilik birinchi o'rinda turishi kerak. Noto'g'ri xabarni birinchi bo'lib berishdan ko'ra, to'g'ri va tasdiqlangan axborotni biroz keyinroq e'lon qilish jamoatchilik manfaatiga ko'proq xizmat qiladi. Tahririyatlarda faktcheking amaliyotini kuchaytirish, sun'iy intellektidan foydalanish bo'yicha ichki qoidalarni ishlab chiqish va xodimlarning raqamli ko'nikmalarini muntazam oshirib borish zarur.

Jurnalist manbadan olingan axborotni tayyor holda qabul qilmasligi, uning manfaatlari va ishonchlilik darajasini baholashi lozim. Anonim manbalar, ijtimoiy tarmoqlardagi tasdiqlanmagan postlar va tarqalish tezligi yuqori bo'lgan shov-shuvli xabarlar alohida ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Professional ommaviy axborot vositalari jamiyatda ishonchli axborot maydonini shakllantirish, feyklarni rad etish va aholiga murakkab jarayonlarni sodda hamda xolis tushuntirish orqali axborot barqarorligiga hissa qo'shadi.

UMUMIY MAS'ULIYAT

Mediasavodxonlikni rivojlantirish bir marta o'tkaziladigan trening yoki qisqa axborot kampaniyasi bilan cheklanmasligi kerak. Bu uzoq muddatli, tizimli va barcha aholi qatlamlarini qamrab oluvchi jarayon bo'lishi zarur.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash, raqamli etika, faktcheking va axborot xavfsizligi ko'nikmalarini o'rgatish muhim. O'qituvchilarning o'zi ham zamonaviy axborot muhitini tushunishi va o'quvchilarga amaliy misollar asosida bilim berishi lozim.

Kutubxonalar ham mediasavodxonlik markazlariga aylanishi mumkin. Zamonaviy kutubxonachi faqat kitob topib beruvchi mutaxassis emas, balki ishonchli axborot manbalarini tavsiya etuvchi va foydalanuvchiga axborotni



Beruniy ALIMOV,
O'zDJTU Media va
kommunikatsiyalar ilmiy
tadqiqot instituti direktori,
filologiya fanlari doktori,
professor.

baholashda yordam beruvchi maslahatchi bo'lishi kerak.

Mahalla, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va faol bloggerlar ham aholi o'rtasida mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shishi mumkin. Ayniqsa, sodda tilda tayyorlangan qo'llanmalar, qisqa videolar va hayotiy misollarga asoslangan tushuntirish materiallari samarali hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biridir. U faqat kompyuter tizimlari, serverlar yoki maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi. Axborot xavfsizligi inson ongi, jamoatchilik ishonchi, ijtimoiy totuvlik va milliy manfaatlarni himoya qilishni ham qamrab oladi.

Mediasavodxonlik esa mazkur xavfsizlikning inson omili bilan bog'liq eng muhim qismi hisoblanadi. Chunki feyk, manipulyatsiya va axborot firibgarligiga qarshi kurashda faqat texnik vositalar yetarli emas. Inson axborotni mustaqil tahlil qilish, manbani tekshirish, fakt bilan fikrni farqlash va mas'uliyat bilan axborot tarqatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.


Raqamli davrda har bir fuqaro nafaqat axborot iste'molchisi, balki uning tarqatuvchisi hamdir. Bir marta tekshirilmay ulashilgan xabar ko'plab insonlarni chalg'itishi mumkin. Bir marta ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilgan tekshiruv esa katta muammoning oldini olishi mumkin. Shu bois axborot xavfsizligi davlat idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki axborot texnologiyalari mutaxassislarining o'ziga tegishli vazifa emas. Bu — oila, maktab, oliy ta'lim, jurnalistika, jamoat tashkilotlari va har bir fuqaroning umumiy mas'uliyatidir.



Video darslik.



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Tuman IIBda

XIZMATIDAN QANOAT
TUYGANLAR

Keyingi yillarda Mirzaobodning nozikta'b ayollari tikkan kiyim-kechaklar yon qo'shnilarimiz qatori, Rossiyaning olis o'lkalarida ham o'z xaridorini topdi. Shu bois tumanga xorijlik tadbirkorlar serqatnov bo'lib qoldi. Ular qo'yadigan dastlabki shart yurt tinchligi va xavfsizligidir. Mirzaobodning bu tarafdin omadi chopgan. Zero, ichki ishlar xodimlari rostdan-da o'z kasbining fidoyilari.



Sirdaryo viloyati IIB YHXB Ma'muriy amaliyot bo'limi inpspektori, safdor Zuhridin Mamatqulov.

XIZMATLAR UYI –
INNOVATSION YECHIM

Mirzaobodga kelmaganimga uch oy bo'libdi. Uch oy ichida tuman markazidagi aylanma yo'l kengayibdi, rayhon-u namozshomgullarga burkanibdi. Tuman IIB yonginasida shinamgina bir imorat qad rostlabdi. Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Ilyos Amanboyev aynan mana shu bino tomon yo'l boshladi. Savolomuz qaraganimga javoban, tuman IIBning bir necha xizmati shu binoga ko'chib chiqqanini aytdi.

radi. Odam ko'p bo'lsa, salqin, keng zaldagi suyanchiqli o'rindiqlarda kutib turishga taklif qiladi. Xizmat uyida probatsiya, migratsiya va personallashtirish bo'limi, YHXB kabi xizmatlar joylashtirilgan. Binoning kattagina xonasida kutubxona ham tashkil etilibdi.

– Maqsad har bir kelgan fuqaro ortiqcha urinmasdan, emin-erkin o'z masalasini hal etib keta olishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat, – deydi mayor Ilyos Amanboyev. – Tuman IIB ichkarisiga

muammolari tez va oson yechilayotganidan, navbatlarga hojat qolmaganidan edi. Xizmatlar uyi zamonaviy optik tolali internet, kompyuterlar, videokuzatuv vositalari, so'ngi rusumli mebellar bilan jihozlangan. Fuqaroning ishi tez, puxta, oson bitishining yana bir omili ham shundan ekan.

KAMSITISH – YANA YANGI
JINOYATGA YO'L

Jinoyat qilgan, vijdoni o'lmagan aksariyatning tili qisiq, boshi egik bo'ladi. Nazari-da odamlar ularni qo'lini bigiz qilib ko'rsatayotgandek bo'laveradi. Shuning uchun ham ular ruhiy bosim ostida elga qo'shilib ketishda qiynaladi. Jinoyatchi odamlardan ajrab «oq qarg'a»ga aylanib qoldimi, yana qaytib jinoyat ko'chasiga o'zini uradi. Alaminini uni qo'lini bigiz qilib ko'rsatganlardan oladi. Probatsiya xizmatining zargar xodimlari buni yaxshi tushunib olishsa, boshi devorga urilib yorilgan odamlar bilan to'g'ri ish olib borsa, kifoya. Eng katta qadam shu! Zero, ruhiy bosimni yengib o'tish sobiq jinoyatchi qaddini rostlashi uchun katta kuch beradi. Tuman IIB probatsiya guruhi xodimlari ham buni yaxshi bilishadi.

– Tumanda 304 nafar probatsiya nazorati ostidagi shaxs mavjud, – deydi probatsiya guruhi katta inspektori, leytenant Bekzod Berdiyev. – Nazorat ostidagilar soni ko'pligi tumanimizning viloyat markaziga yaqinligi, mamlakatni kesib o'tgan katta avtotrassa bo'yida joylashgani bilan bog'liq.

Haqiqatan ham, Mirzaobodning ayrim savdo majmualari, korxonalari Guliston shahri chegaralari bo'ylab joylashgan. Buning yaxshi tomoni ko'p. Ko'pchilik ish bilan ta'minlangan. Yomon tomoni ham bor. Odamlarning gavjumligi kriminogen vaziyatni «chayqaltirib» turadi.

kirishdagi turniket tekshiruvi, shaxsini tasdiqlash borasidagi ortiqcha rasmiyatchilikni kamaytirdi.

Ushbu binoda odamlar gavjum emasdi. Bu ularning



Probatsiya guruhi katta inspektori, leytenant Bekzod Berdiyev va inspektor, leytenant Diyorbek Xudoyorov.

Xodimlarning aytishicha, nazorat ostidagi har bir shaxsning ijtimoiy pasporti yaratilgan. Shu asosda ular bilan ishlashning taktik yechimlari ishlab chiqilgan. Ularning salmoqli qismi ish bilan ta'minlanib, ayrimlariga subsidiya ajratib berilgan. Natijada joriy yilning o'zida o'ttizdan ortiq shaxs muddatidan oldin shartli ravishda jazodan ozod qilingan.

KO'NGIL BOG',
YASHNATISH ULUG' ISH

Kichik serjant Malika Murodova raqamli avlod vakilasi. U O'zbekiston Milliy universitetini tugatgach, IIV Akademiyasi

olishmagani uchun xonadoniga kelishlarini so'rashadi. Kulib turadigan ushbu qizaloq kirib borishi bilan har qanday xonadonda ko'tarinki kayfiyat paydo bo'ladi. Mana bugun ham u tumanning olis «Yo'ldoshobod» mahallasiga keldi. Yoshi yetmishni qoralagan, belida churrasi borligi uchun harakatlanishi cheklangan Rixsixon ayaning pasport almashtirish muddati kelibdi. Ayaning kayfiyati yaxshi emasdi. Malika aya bilan xush ko'rishdi. Ko'rinishi yaxshi ekanini aytib, ko'nglini ko'tardi. Suyanib bo'lsa-da, ichkariga kirib yangi ko'ylagini kiyib chiqqan ayol suratga ham xush kayfiyatda tushdi.



M va PG inspektori, kichik serjant Malika Murodova.

Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarida tahsil oldi. Hozirgi kunda Mirzaobod tumani IIB M va PG inspektori vazifasida xizmat qilyapti. Ishi murakkab, mas'uliyatli. Odamlar turli kayfiyatda kelishadi. Ko'pchiligi betoqat. Har birining ko'nglini topish, roziligini olish uchun mahorat, ruhiy barqarorlik zarur. Yosh bo'lsa-da, ustozlari ko'magida buni yaxshi tushunib oldi. Nogiron, keksa, mehr-e'tiborga muhtoj odamlar o'zlari pasportini almashtirishga kela

Shu bahona o'tirib bir piyola choy ichdi. Pasportchi qiz bilan yayrab suhbatlashdi. Kichik serjant ID-karta tayyor bo'lgach, o'zi yetkazib berishini aytib u bilan xayrlashdi. U qaytar ekan pasport almashtirish vazifasini bajarganidan-da ko'ra, bir insonning ko'nglini ko'targani, unga umid bag'ishlaganidan dili yayradi. Kasbidan qanoat tuydi.

**Abdurahmon
MUSTAFOQULOV,**
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Ilyos Amanboyev hamda M va PG katta inspektori, kapitan Jahongir Kurabov.

Zamonaviy jihozlangan foyega kirib borishingiz bilan ikki tomonda ikkita yoshgina qiz tabassum bilan kutib oladi. Sizdan nima xizmat bilan kelganingizni surishtirib yo'nalti-



Mulohaza

Bir necha yil oldin ozdiruvchi dorilar haqida vahimali gaplar tarqalgan edi. Nima emish, suvli piyolaga solingan dori barmoqdek keladigan oq qurtga aylanib qolganmish. Bu o'zi shunday – oshqozonga tushganida qurtga aylanib, tanadagi ortiqcha yog'larni yeb bitiruvchi dori emish. Qorindagi ortiqcha yog'lar tugagach, organizmga zarar bermay tushib ketarmish...

Bu qanchalik rost edi bilmadim-u, lekin bugun semizlik hamda ortiqcha vazndan tez va oson qutulish yo'llarini izlagan, sinab ko'rgan yurtdoshlarimiz son-sanoqsiz ekaniga guvohmiz.

«DIYETA QILIB, KUCHDAN QOLDIM»

Bir qo'shnim bor – ko'rishib qolsak, birinchi savoli: «Hamsoya, yana semiribmanmi?» bo'ladi. Xafa qilmay «Yo'q, sezmadim», deyman. «Sizga sezilmaydi-da, o'zinga bilinadi. Suv ichsam ham semirib ketyapman», deb noliydi.

Bir safar u avvalgiga ko'ra ancha ixcham, go'yoki vazn tashlagandek tuyuldi. «Instagramdan diyetolog topdim, mijozlarini zo'r ozdirayotgan ekan. Bir mijozi 3 oyda 21 kilo vazn tashlaganini aytdi. Shuning onlayn kursiga yozildim», deydi. Diyetolog kunlik ratsion tuzib bergan, qo'shnim esa 10 kundan beri unga amal qilayotgan ekan. Men esa uning nafaqat ko'rinishi, balki ichki dunyosi ham o'zgarayotganini payqadim: gapirayotib, ko'zlari porlayapti. Oldimda o'ziga ishonchi ortayotgan, hayotdan xursand ayol turardi...

Oradan qanchadir vaqt o'tib, u bilan to'yda ko'rishdik – tag'in to'lisha boshlabdi. Salom-alikdan so'ng qo'shnim yana odati bo'yicha «Semiribmanmi?» deya so'radi. «Biroz», dedim, ko'nglini cho'ktirmaslik uchun. «Parhez menga to'g'ri kelmas ekan – 2 hafta zo'rg'a chidadim, qornim to'yamaydi. Bir kuni ishda mazam qochib qoldi – qon bosimim tushib ketibdi. Hamkasblarim «kuchsiz ovqatlar»ning ta'siri deyishdi. Shunday turib, ishxonam oldidagi «Milliy taomlar»ga kirdim... O'zinga keldim», deydi. Aytishicha, bu issiqlarni yengish uchun ham dadil-dadil ovqatlar yeyish kerak emish. «Endi ozdiruvchi kofelarga qiziqyapman, qo'shni. Reklamasini ko'rdim,

OCHLIK EMAS, ORTIQCHA YEYISH MUAMMO

bir kursning o'zida 20 kilo ozdirar ekan...» deydi.

«O'LIM SHARBATLARI» VA IRODA

Qo'shnim ozdiruvchi qahvalar haqida gapirarkan, bir ona zor yig'lagani, tobut boshida ikki go'dak mo'ltirab turgani ko'z oldimga kelib yuragim siqiladi.

TARTIBSIZ HAYOT TARZI

Semizlik – faqat bizda yoki ayollar orasidagina kuzatiladigan kichik muammo emas. Bugun uni olimlar XXI asrning eng jiddiy, global sog'liq muammosi deyishadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 1 milliarddan ortiq inson (Yer yuzidagi har 8 nafar insondan biri) semizlikka moyil. Shulardan 890 million

Bugun 2,5 milliard nafar kishi ortiqcha vaznga ega va ularning aksariyati semizlik bosqichiga

likka me'yoridan ortiq ovqat iste'moli, zararli odatlarga qaramlik, kamharakatlik, ruhiy muammolar, tartibsiz hayot tarzi va kasallik sabab bo'ladi.

BIZNING SHAROITDA PARHEZ QILIB BO'LARMIDI?!

Xolamizning qizi oilasi bilan mehmonga keldi. Biz o'zbeklar uchun mehmon – atoyi xudo. Birpasda dasturxon tuzab, oshga unnadim, turmush o'rtog'imga qo'ng'iroq qilib, mehmon kelganini aytdim, shunga ko'ra «tayyorlanib» kelishini tayinladim.

Palovxonto'ra yeyilgach, lagan o'rnini sovutmay, turmush o'rtog'im olib kelgan bug'i chiqib turgan kaboblarni dasturxonga tortdim. Hozirgina ovqat yeganimizga qaramay, ularni ham oxirigacha paqqos tushirdik. Choy ustida bildik – mehmonlarimiz poytaxtga shifokor ko'rigi uchun kelishgan ekan. «Olti oy oldin

o'zimizni do'xtirlarga borganim. Tekshirib, yurakatrofini yog' bosgan, infarktga moyillik bor, deb bir dunyo dori yozib bergandi. Yarim yildan buyon ichaman, ta'sirini sezmadim. Yuragim siqiladi, sanchish bor», deydi pochchamiz. Ayoli aralashdi: «Parhez ham degan, lekin bizning sharoitda parhez qilib bo'larmidi?! Kunora to'y, deyarli har kuni gap-gashtak, tug'ilgan kun...

«ISPANCHA UYAT»

Ijtimoiy tarmoqlarda bir mechkay degustator akaning kontentlariga ko'zingiz tushgandir. Kunora qaysidir yemakxona eshigi tagida. Tamaddixona egalari qo'li ko'ksida, ba'zida bita, «himmati toshib ketsa» ikkita to'la laganni uzatib, «Okajon, baho berarsiz», deb mulozamat

qiladi. «Okajon» ham hash-pash deguncha laganni «tozalab» qo'yadi (og'zini chappillatib yeyishi-ku alohida mavzu).

Yaqinda shu «okajon»ga oy desa oydek, kun desa kundek bir qizning javob videosi chiqdi, «Ochofat qizlarga ataladi» degan. Tomoshabinlar galasi guvohligida u bir lagan oshni ko'rdim demasdan paqqos tushirdi. Shuncha ko'zlar, shuncha kameralar qarshisida qiz qo'lini kurakday qilib og'ziga solib yuboryapti-yu, bu yoqda mening yuzim qizaradi. Shu payt atrofdagilar, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari, hatto-ki qizning ota-onasi uchun xijolat bo'ldim – «ispancha uyat»da edim.

Biz qachon bu ahvolga keldik? Yashash uchun yeyish emas, yeyish uchun yashashni qachondan boshladik? Qaysi payt nafs quliga aylanib ulguridik?

Sizni ham shu savollar qiy-naganmi? Unda atrofga razm soling: nechta tamaddixonani sanadingiz? Beshtadan kam emas, to'g'rimi?! Taklifimizga ko'ra «talablar qondirilayotgan» paytda biz nafaqat nafs quliga aylandik, balki sog'lig'imiz va hayot tartibimizni qo'ldan boy bera boshladik. Uyg'urcha lag'mon ortidan qozon kabob yeyayotganimizda tanamiz kengayib, xastaliklar sari odimlayotganimizni anglamadik.

QACHON TO'XTASH KERAK?

Palapartish ovqatlanish, zararli odatlar, kamharakatlik qachondir bizga «to'xta» deydi. Ammo u payt kech bo'lishi mumkin, yaxshisi, ular «tilga kirmasdan» bu buyruqni o'zimiz berishimiz kerak.

Semizlikdan qutulish imkonsiz narsa emas. Ijtimoiy tarmoqlarga kiring, mazkur muammolaning qiyalayotganlarga minglab taklif bor. Diyetolog, trenerlar tomonidan bu borada ko'plab tavsiya, maxsus ratsion, kunlik taomlanish rejaları ishlab chiqilgan. Diyetolog qabulida bo'lish yoki jismoniy mashg'ulotlar uchun fitnes zal-lariga chiqishga hammada ham sharoit va imkoniyat bo'lmas, dersiz. Bugun bu ham bahona emas – mutaxassislar huzuriga bormay turib ham parhez va mashqlarni internet orqali o'rganib bajarish mumkin va bu mutlaqo bepul. To'g'ri, bu sizdan biroz vaqt, qunt va sabr talab etadi, lekin unutmang: bular evaziga o'z salomatligingizni asrab qolasiz.

Yodda tuting: yeyayotganlarimiz bizni yo'qlikka emas, sog'lom turmushga yetaklashi kerak.

Dildora BOZOROVA



o'tish xavfi ostida.

O'tgan yilimidi yoki undan oldin ijtimoiy tarmoqlarda yurakni larzaga soluvchi videotasvir tarqalgandi. Unda ayol qizining ozish uchun reklama qilinayotgan qahvadan ichib, bir haftada 9 kilo vazn tashlagani, navbatdagi iste'moldan so'ng oshqozoni xuruj berib yuragi to'xtab qolganini aytib zor qaqshardi. Unga qo'shilib nevaralari – onasidan ayrilgan ikki go'dakning yig'laganini ko'rib, ancha payt o'zimga kelolmagandim o'shanda.

Aslida, qisqa vaqtda katta vazn tashlashni kafolatlaydigan ozdiruvchi dori, choy, qahvalar organizmga zarar ekanini deyarli barchamiz bilamiz. Shunga qaramay, ko'pchilik o'z hayotini xavfqa qo'yib yana shu mahsulotlarni iste'mol qilishda davom etishi kishini o'ylantiradi. Nahotki shu «o'lim sharbatlari» sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik va biroz irodadan maqbulroq yechim tuyulsa?!

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 43 foizi ortiqcha vaznga ega va bu 1990-yilgidan ikki baravarga ko'p.

2030-yilga borib esa mazkur ko'rsatkich 45 foizga yetishi taxmin qilinmoqda.

2023-yili JSST va mahalliy olimlarimiz hamkorligida yurtimizda 18 dan 64 yoshgacha bo'lgan insonlar orasida tadqiqot o'tkazilgan. Uning natijalariga ko'ra, respublikamiz aholisining yarmi ortiqcha vaznga ega. Shuningdek, aholining 20 foizi semizlikdan aziyat chekadi, 46 foizining esa qonida xolesterin miqdori oshgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, semiz-



MUSTAHKAM ASOS

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va fuqarolarda yo'llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, yo'ldagi har bir qoidabuzarlik ortida inson hayoti, salomatligi va taqdiri mujassam. Shu ma'noda ayni paytda davom etayotgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichi nafaqat huquqbuzarliklarni aniqlash, balki yo'llarda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Xususan, IIB JXX YHXB tomonidan tadbir davomida yo'l-patrul xizmati yo'nalishi bo'yicha joriy yilning 1-avgustiga qadar 59 ming 35 ta qoidabuzarlik aniqlangani yo'l harakati ishtirokchilari o'rtasida intizomni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, eng ko'p uchragan qoidabuzarliklar qatoriga svetoforning qizil chirog'iga bo'ysunmaslik, transport vositalari oynasining tusini noqonuniy o'zgartirish hamda tegishli

hujjatlarsiz transport vositalarini boshqarish holatlari kiradi. Bu esa mazkur yo'nalishlarda jazo choralar bilan bir qatorda, profilaktika, huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlarini ham izchil davom ettirish zarurligini anglatadi. Chunki yo'l harakati madaniyati bir kunda shakllanmaydi. U muntazam nazorat, huquqiy tarbiya va jamoatchilik ishtirokida mustahkamlanadi.

– Tadbirning muhim jihatlardan biri shuki, u huquqbuzarlarni jazolash bilan

cheklanib qolmadi, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i, podpolkovnik Rustamjon Maqsudxo'jayev. – Amalga oshirilgan choralar minglab haydovchilarning mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qildi.

Yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash faqat haydovchi yoki piyodaning intizomiga emas, balki infratuzilmaning qay darajada talabga javob berishiga ham bog'liq. Shu bois tadbir davomida bu yo'nalishga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2 ming 330 ta svetofor qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatildi. Shuningdek, 54 ta svetofor qurilmalari, 3 ming 929 ta yo'l belgilari o'rnatildi hamda 80 ta qavariq piyoda o'tish joylari tashkil qilindi. Ayniqsa, piyodalar serqatnov hududlarda tashkil etilgan qavariq o'tish joylari haydovchilarni tezlikni pasaytirishga undaydi. Bu esa inson hayotini asrashga xizmat qiluvchi samarali muhandislik yechimlaridan biridir.

Infratuzilmani takomillashtirish ishlari davomida



318 ming 80 kvadrat metr yo'l chiziqlari chizildi, 22 ming 844 metr muhofaza to'siqlari o'rnatildi. Bu ishlar hududlardagi yo'l-transport hodisalari tahlil qilinib, xavfli nuqtalar aniqlangandan keyin amalga oshirildi. Demak, har bir chiziq va har bir muhofaza to'sig'i muayyan xavfni bartaraf etishga qaratilgan amaliy chora hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda targ'ibotning ahamiyati beqiyos. Zero, jazo qoidabuzarlik sodir etilgandan keyin qo'llanilsa, targ'ibot uning oldini olishga xizmat qiladi. Shu maqsadda tadbir davomida viloyat bo'ylab 109 ming 29 ta targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tezkor-profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichi davomida huquqbuzarliklarni aniqlash bilan cheklanib qolmayapti. Balki uning doirasida

qonunbuzarlarga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rilib, yo'l infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Profilaktika va targ'ibot ishlari keng ko'lamda davom etmoqda. Eng muhimi, bu tizimli ishlar jamoatchilikda yo'l harakati qoidalariga hurmat va mas'uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash oylik tadbirlar doirasida cheklanmaydi. Balki ushbu profilaktik tadbir davomida amalga oshirilgan ishlar keyingi faoliyat uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, xavfsiz yo'l faqat qonun talablariga rioya qilish bilangina emas, balki har bir haydovchi va piyodaning yuksak mas'uliyati, ongli munosabati va hushyorligi bilan ta'minlanadi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



ARZONFURUSHLARNING «MISI» CHIQDI

Bugungi kunda firibgarlik jinoyati tobora yangi ko'rinish va usullarda namoyon bo'lmoqda. Ishonch va soddalikdan ustalik bilan foydalanayotgan ayrim kimsalar o'zlarini har qanday yordamga tayyor, halol tadbirkor yoki xizmat ko'rsatuvchi sifatida tanishtirib, fuqarolarning mol-mulkini qo'lga kiritishni ko'zlaydi. Eng achinarlisi, bunday nayranglarga ishonib qolgan odamlar moddiy zarar ko'rib, firibgarlar tuzog'iga tushib qolmoqda.

Farg'ona viloyati IIB Axborot xizmatining ma'lum qilishicha, joriy yilning 31 iyul kuni «Xavfsiz va sog'lom yurt» oyligi doirasida Farg'ona viloyati ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ana shunday jinoyatlardan biri fosh etildi.

Aniqlanishicha, Andijon viloyatining Asaka tumanida yashovchi ikki nafar shaxs Farg'ona viloyati hududida o'zlarini go'yoki «Arzonchi» maishiy texnika savdo do'koni xodimlari sifatida tanishtirib, fuqarolarni muntazam ravishda aldab kelgan. Ular arzon narxda maishiy texnika yetkazib berishni va'da qilib, fuqarolarning ishonchiga kirgan. So'ngra ularning nomiga onlayn tarzda mikroqarz rasmiylashtirgan. Olingan

mablag'lar esa firibgarlar tomonidan o'zlariga tegishli plastik kartalarga o'tkazilib, shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab yuborilgan.

Tezkor-qidiruv tadbirlari davomida ushbu shaxslar boshqaruvida bo'lgan «Labo» rusumli avtomashina hamda turli xil maishiy texnika va ro'zg'or buyumlari ashyoviy dalil sifatida olindi. Jumladan, 11 dona dazmol, 8 dona pichoqlar to'plami, 3 dona changyutgich, 1 dona kir yuvish mashinasi, 1 dona konditsioner, 5 dona elektron qozon, 1 dona televizor, 1 dona gaz plitasi, 1 dona muzlatkich, 2 dona qozonlar to'plami, 1 dona idishlar to'plami hamda 4 dona mini-konditsioner musodara qilindi.

Dastlabki surishtiruvlar davomida mazkur shaxslar 17 nafar fuqaroni aldab, ularga jami 107 million so'm miqdorida moddiy zarar yetkazgani ma'lum bo'ldi.

– Bolalar maishiy texnikasini sotishganini ko'rib, olishga qiziqdim. Keyin «Limitingizni tekshirib, o'shanga



yarasha mahsulot va bonus beramiz», deb yuzimni rasmga olishdi, – deydi undan jabrlangan ayollardan biri ko'z yosh qilib. – Bir oydan so'ng menga bank xodimlari telefon qilib, kredit olgan ekansiz, oyiga 1953000 ming so'mdan to'lashingiz kerak deyishganida, kapalagim uchib ketdi. Keyin

surishtirib bilsak, shu yigitlar nomimga kredit rasmiylashtirib, o'zlariga o'tkazib olgan ekan.

Hozirgi kunda ushbu holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari hamda qo'shimcha tezkor-texnik tadbirlar olib borilmoqda. Shuningdek, jinoyatning boshqa epizodlari va jabrlanganlar mavjud yoki yo'qligi aniqlanmoqda.

Hurmatli fuqarolar! Arzon narx va jozibador takliflar ortida har doim ham yaxshi niyat yotmasligi mumkin. O'zini savdo xodimi yoki xizmat ko'rsatuvchi sifatida tanishtirgan har qanday shaxsga ko'r-ko'rona ishonmang. Moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan avval shaxsning vakolati va taklifining haqqoniyligini sinchiklab tekshiring.

Unutmang, hushyor va ogoh bo'lsangiz, firibgarlarga aldanmaysiz!

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Ayol va jamiyat

UMID VA ISHONCH TUTASHGAN MANZIL


Ila tinch bo'lsa, mahalla va yurtda osoyishtalik qo'nim topadi. Ana shu zanjirning eng nozik, ammo eng muhim halqasi – xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning dardini eshitish va muammosiga o'z vaqtida yechim topish. Sherobod tumani IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Surayyo Xudoyqulova hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ana shu ezgu maqsadning amaliy ifodasi, deyish mumkin.

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori eng avvalo, muammoning ildizini topishi, tegishli tashkilotlarni bir maqsad atrofida birlashtirishi va insonni muammo bilan yolg'iz qoldirmasligi lozim. Buning amaliy natijasini raqamlar ham tasdiqlaydi. Joriy yilning olti oyida 43888 ta xonadon xatlovdan o'tkazildi. Har bir xonadonga kirib borish orqali oilalarning ijtimoiy ahvoli, bandligi, sog'lig'i, huquqiy ehtiyojlari va boshqa muammolari o'rganildi. Bu jarayonda 5798 nafar ehtiyojmand xotin-qiz aniqlanib, «Ayollar daftari»ga kiritildi.

E'tiborlisi, mazkur tizimda asosiy maqsad ro'yxatni ko'paytirish emas, balki undan chiqarishdir. Ya'ni ayolning muammosi hal etilsa, u davlat ko'magiga muhtoj toifadan mustaqil hayot kechiradigan insonga aylana-

nadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bandlikni ta'minlash eng samarali profilaktika choralaridan biri hisoblanadi. Daromad manbai bor insonning ertangi kunga ishonchi mustahkam bo'ladi. Ishsizlik esa aksariyat hollarda oilaviy kelishmovchiliklar, nizolar va hatto ayrim huquqbuzarliklarning ilk sabablaridan biriga aylanadi.

Tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan 3224 nafar xotin-qizdan 1785 nafarining ish bilan ta'minlangani bejiz emas. Bu yuzlab oilalarda moddiy barqarorlik tiklanganini, farzandlar ta'limi va oila muhiti yaxshilanganini anglatadi.



«Ayollar daftari»ning ikkinchi toifasiga kiritilgan 124 nafar xotin-qiz tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish istagini bildirgach, ulardan 47 nafariga imtiyozli kredit ajratilishiga ko'maklashildi. Uy-joyini ta'mirlashga muhtoj bo'lgan 55 nafar xotin-qiz aniqlanib, ularning barchasi bo'yicha tegishli dalolatnomalari rasmiylashtirilib, qurilish materiallari ajratish ishlari amalga oshirilmoqda.

– Oilaviy nizolarning aksariyati ruhiy tushkunlik, stress yoki uzoq vaqt yechim topmagan ijtimoiy muammolar oqibatida kelib chiqadi, – deydi kapitan Surayyo Xudoyqulova. – Shu sababli tibbiy va psixologik yordamga muhtoj deb topilgan xotin-qizlardan 1498 nafariga tibbiy va psixologik xizmatlar ko'rsatildi. Amaliyotda psixolog maslahati orqali ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning saqlab qolingani, uzoq vaqt muloqot qilmagan oila a'zolarining yarashgani kabi holatlar ham bor.

Ko'plab xotin-qizlar aliment, meros, nikoh, ajrim yoki mulkiy munosabatlar bo'yicha o'z huquqlarini to'liq bilmaydi. Joriy yilda huquqiy yordamga muhtoj bo'lgan 293 nafar xotin-qiz ro'yxatga olinib, ularning 182 nafariga huquqiy maslahat va amaliy yordam ko'rsatildi. Qolaversa, 236 nafar jabrlangan xotin-qizga himoya orderi berildi. Himoya orderlari orqali og'ir oqibatlarining oldi olinmoqda.

Eng muhimi, bugun ichki ishlar organlari har bir murojaatga huquqiy hujjat sifatida emas, inson taqdiri sifatida yondashmoqda. Zero, bir ayolning ko'nglida paydo bo'lgan ishonch – butun bir oilaning kelajagini saqlab qolishi mumkin.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Xotira uyg'onsa go'zal



Bugun O'zbekiston taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichida dadil odimlamoqda. Mamlakatimizda barqarorlik, qonuniylik va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Davlatimizning jahon maydonida-gi nufuzi oshib, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarida salmoqli yutuqlarga erishayotgani, avvalo, yurtimizdagi tinchlik-oso-yishtalik bilan chambarchas bog'liq. Bugungi musaffo osmon, xotirjam kunlar va osuda hayot ortida o'z burchini sharaf bilan ado etgan jasur insonlarning matonati mujassam.

Kapitan Shuhratbek Zohidovning nomi Vatan tinchligi va xalq oso-yishtaligi yo'lida xizmat qilgan qahramonlar qatorida alohida ehtirom bilan tilga olinadi.

Shuhratbek, bolaligidanoq halollik, intizom va mehnatsevarlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalangan. Maktab yillarida sportga, xususan, sharq yakka kurashiga qiziqdi, kitob

mutolaasiga mehr qo'ydi. Qurolli Kuchlar safida yigitlik burchini o'tab qaytgach, Andijon viloyati IIBda xizmat faoliyatini boshladi. Qisqa vaqt ichida bilimdonligi, o'ziga talabchanligi va jasurligi bilan rahbarlar ishonchini qozondi. Keyinchalik maxsus bo'linma safida faoliyat yuritib, terrorism, bosqinchilik va boshqa o'ta xavfli jinoyatchilarga qarshi kurashishdek mas'uliyatli vazifalarni bajardi. U ishtirok etgan maxsus operatsiyalardan biri 2000-yilda amalga oshirildi.

Tadbir chog'ida qurollangan jinoyatchilar yashiringan xonadon qurshovga olindi. Birinchi guruh tarkibida binoga kirib, jinoyatchilarni zararsizlantirish jarayonida alohida mardlik ko'rsatdi. Natijada operatsiya muvaffaqiyatli yakunlanib, tinch aholi hayoti saqlab qolindi. Shuhratbek Zohidovning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U xizmat davrida qirq marta-dan ziyod turli rag'batlantirishlarga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra «Jasorat» medali, keyinchalik «Shon-sharaf» ordeni bilan taqdirlandi. Bu mukofotlar uning Vatan oldidagi xizmatlariga berilgan yuksak baho edi.

Kapitan Shuhratbek Zohidov 2005-yilning may oyida Andijonda yuz bergan fojiali voqealar chog'ida, xizmat burchini bajarayotgan payt-

da qahramonlarcha halok bo'ldi. U so'nggi nafasiga qadar Vatanga, xalqqa va qasamyodiga sodiq qoldi. Qisqa, ammo mazmunli umri jasorat va fidoyilik timsoliga aylandi.

– Turmush o'rtog'im juda mehribon, samimiy va oilaparvar inson edi, – deydi Shuhratbekning umr yo'l-doshi Mehriniso Zohidova. – Ishdan qaytganida farzandlari uchun albatta shirinlik olib kelardi. Kasblarini sevar, Vatanga xizmat qilishni eng oliy burch deb bilardilar. El-yurt tinchligi uchun qahramonlarcha kurashgani bilan faxrlanaman. Qaniydi, hozir hayot bo'lsa...

Bu so'zlarda nafaqat bir oilaning dardi, balki Vatan tinchligi yo'lida aziz insonlaridan ayrilgan ko'plab oilalarning alami va faxri mujassam.

Shuhratbek Zohidov go'yoki musaffo orzular bilan yashagan bir qush edi. U Vatan osmonida qanot qoqdi, xalq tinchligi yo'lida jonini fido qildi.

Mard o'g'lonning xotirasi el qalbida mangu yashaydi. Zero, bugungi tinch va osoyishta hayotimizning har bir lahzasida u kabi fidoyi insonlarning jasorati mujassam. Ularni minnatdorlik bilan yod etish barchamizning burchimiz va vijdon amrimizdir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Yangi O'zbekiston yoshlari – yurt tayanchi

OILADAN BOSHLANGAN PARVOZ

Farzandning kelajagini bolalikda uning qo'liga kitob berish va yoki nasihatlar bilan qurib bo'lmaydi. Bola uchun eng ta'sirchan tarbiya – oiladagi shaxsiy namuna. Oilada otaning Vatanga muhabbati, kasbga sadoqati, oilaga mehri, onaning ilmga intilishi va farzand kelajagiga bo'lgan yuksak mas'uliyati uyg'unlashsa, bunday muhitda katta maqsadlar bilan yashaydigan avlod voyaga yetishi tabiiy. Abdullayevlar oilasi ana shunday baxt qo'rg'onlaridan biridir.



IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti Ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmati bosh inspektori, podpolkovnik G'ayrat Abdullayev 16 yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib kelmoqda. U 2023-yili IIV Akademiyasi magistraturasida tahsil olgan tinglovchisi sifatida ham o'z ustida tinimsiz izlanish olib borgan malakali kadrlardan. Turmush o'rtog'i Malika Abdullayeva esa IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ingliz tili fani o'qituvchisi. «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni sohibasi, oliy toifali, xalqaro ingliz tili o'qituvchisi hisoblanadi. U 2024-yilda Webster universitetini tamomlagan. Bu oilada ota-ona «o'qish tugadi» degan chegarani tan olmaydi.

Shu bois o'g'li Javohirning ilm olishi, Vatanga sadoqat bilan xizmat

qilishi, kelajakda yetuk va salohiyatli kadr bo'lib yetishishi uchun imkon qadar barcha sharoitlarni yaratishga intildi. Shu ma'noda Javohirning bugungi muvaffaqiyatida oilaviy muhitning o'zni beqiyos. Bu oilada xizmat – burch, ilm – qadriyat, mehnat – hayot tarzi, natija esa – mas'uliyat sifatida qadrlanadi. Ana shunday ta'sirda ulg'aygan farzandning orzulari ham oddiy bo'lib qolmadi.

2026-yili «El-yurt umidi» jamg'ar-masining birinchi ochiq stipendiya tanlovida 18 mingdan ortiq nomzod ro'yxatdan o'tdi. Test va suhbat bosqichlarida yuqori natijalarni qayd etgan 210 nafar iqtidorli yoshlar «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «El-yurt umidi» stipendiyasi sovrindori» deb e'tirof etildi. Ular orasida Javohir Abdullayevning

ham borligi oilaning ko'p yillik mehnati va farzandning izlanishlari samarasi bo'ldi.

Javohir bu natijaga bir kunda erishgani yo'q. U Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchisi bo'lib, xalqaro ingliz tili imtihonida IELTS 7.0, xalqaro matematika imtihonida esa SAT 1480 ball natijasini qayd etgan. Uning yutuqlari faqat xalqaro sertifikatlar bilan cheklanmaydi. O'tgan yili Yangi O'zbekiston universiteti va IT Park hamkorligida tashkil etilgan Open Data Hakaton chempionatida faxrli 2-o'rinni egalladi. Joriy yilda esa «Harvard Business Case Competition» tanlovining yarim finalchisi bo'ldi. O'quvchilik davrida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab volontyorlariga boshchilik

qildi. Bu faktlar bir narsani ko'rsatadi: Javohir uchun bilim faqat sinfxona va darsliklar bilan cheklanmagan. U o'rganganlarini sinab ko'rishga, jamoa bilan ishlashga, tashabbus ko'rsatishga va yetakchilik mas'uliyatini zimmasiga olishga intiladi.

Javohir Abdullayev «El-yurt umidi» stipendiyasi orqali 2026-yil reytingida 55-o'rinni egallagan Nyu-York universitetining Shanxaydagi filialida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur filial xalqaro ta'lim muhiti bilan ajralib turadi. Bu yerda xitoylik talabalar bilan bir qatorda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan kelgan yoshlar tahsil oladi. Bunday muhit Javohir uchun yana bir katta maktab. Negaki, u nafaqat yangi bilimlarni egallaydi, balki dunyoning turli mamlakatlardan kelgan tengdoshlari bilan fikr almashadi, yangi g'oyalar bilan tanishadi, xalqaro loyihalarda o'zini sinaydi.

«El-yurt umidi» stipendiyasi g'olibi bo'lish – katta sharaflar. Endi Javohir oldida dunyoning nufuzli ta'lim muhitlaridan birida bilim olish, yangi texnologiyalarni o'rganish, turli madaniyat va qarashlar bilan tanishish, o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirish vazifasi turibdi. Ammo bu yo'lning eng muhim manzili – yetuk va salohiyatli kadr bo'lib Vatanga qaytish, albatta.

Dilrabo ABUDHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir,
katta leytenant.

Xizmatlarda

Navoiy viloyatining Konimex tumani IIB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish guruhi tomonidan aholini doimiy va vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish hamda ro'yxatdan chiqarish, pasport-viza tizimiga oid davlat xizmatlarini ko'rsatish, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda migratsiya sohasida huquqiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

– Fuqarolarga qulaylik yaratish va davlat xizmatlarini sifatli tashkil etish faoliyatimizdagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Joriy yil boshidan buyon tumanda 642 nafar 16 yoshga to'lganlarga ID-kartalar tuman IIB rahbariyati ishtirokida tantanali ravishda topshirildi, – deydi tuman IIB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish guruhi katta inspektori, leytenant Komil Aripov.

– ID-kartamni qabul qilib olganimda shu yurtning fuqarosi ekanligimni chuqur his etib, qattiq hayajonlandim. Endi bank, ta'lim

va boshqa davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldim, – deydi Laziza Kamolova.

Yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor bilan bir qatorda, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan hamda nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun sayyor davlat xizmatlari tashkil etilmoqda. Shu tariqa ularning idoralarga kelib ovora bo'lishining

oldi olinmoqda. Joriy yilda tumanda istiqomat qiluvchi 21 nafar keksa yoshdagi, imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan fuqaroning xonadoniga borilib, ularga ID-kartalari rasmiylashtirib berildi.

– Yoshim bir kam to'qsonda. Keksaligim tufayli idoralarga borish men uchun ancha qiyin edi. Baraka topkurlar uyimga kelib, barcha hujjatlarni to'g'rilab berishdi. Biz keksalarga bunday g'amxo'rlik ko'rsatayotgan, e'tibor berayotgan davlatimiz rahbarining umri uzoq bo'lsin, – deya duo qildi tumannig «To'qqiztepa» mahallasida yashovchi Narbibi Kudiyarova.

Konimex tumani IIB huzuridagi Migratsiya va personallashtirish guruhi xodimlari tomonidan aholiga sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish hamda xalq roziligini ta'minlash maqsadida bu kabi ezgu ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

ONAXON MINNATDOR



Hafta qahramonlari

BO'RIJARNING TO'LQINLARIN JILOVLAGAN RASULJON

Hayotning kutilmagan sinovlarida, mas'uliyatli lahzalarda yurak amri bilan mardlarcha harakat qilgan insonlar – haqiqiy qahramonlardir. Bo'rijar kanalida cho'kib ketayotgan 13 yoshli Muhammadni qutqarib qolgan Yakkasaroy tumani IIOFMB Jamoat tartibini saqlash bo'limi patrul-post xizmati otryadi inspektori, safdor Rasuljon Jo'rayev ana shunday fidoyi va jasur xodimlardan biridir.

OG'IR DAQIQALAR

Bo'rijar kanali... Uning millionlab olmoslardek tovlangan mavjlari bir qarashda qalbga yengillik va ajib rohat bag'ishlaydi. Biroq ulardagi sho'xlik va shiddat yurakda andak hadik ham uyg'otadi. Shu xavotirning qalqonidek chor-atrofga ziyrak nigoh tashlab odimlayotgan Rasuljon qisqa salom-alikdan so'ng o'sha og'ir daqiqalarni yodga oldi:

– Kanalda goh qo'llari, goh boshi ko'rinib-ko'rinmay bir bola oqib kelayotganiga tasodifan ko'zim tushdi, – deydi u. – O'ylab ham o'tirmay suvga sakradim. Xayolimda faqat bir fikr bor edi: «Yetib borgunimcha suv ostiga kirib ketmasinda». Xayriyat, ulgurdim! Yetib borib boq bolakayning qo'lidan tutdim va «Qo'rqma, hozir qirg'oqqa chiqamiz», deya suza boshladim. Shu payt orqadan yana bir kishi yordamga keldi. Birgalikda bolani o'rta olib, qirg'oqqa olib chiqdik.

ONANING KO'Z YOSHLARI

Uyga xomush holda kirib kelgan Muhammad hech kimga hech narsa demadi. Biroq oradan biroz vaqt o'tib, o'qituvchisining onasiga qo'ng'iroq qilishi va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videoni yuborishi hammasini fosh etdi.

– To'g'risi, videoni ko'rib yig'lab yubordim, – deydi Muhammadning onasi Gulchehra Avezova. – Butun vujudimni qo'rquv egalladi. Bolam yonimda ekaniga qaramay, o'zimni bosib ololmadim va undan bo'lgan voqeani so'radim. U yig'lab: «Kechiring, oyijon, endi sizdan beso'roq hech qayerga bormayman», dedi. So'ng sinfdoshlari bilan kanal bo'yiga borgani, cho'milib suvdan chiqayotganida oyog'i toyib suvga tushib ketgani va uni bir



ichki ishlar xodimi bilan bir yigit qutqarib qolganini yig'lab aytib berdi. Mard xodimlarimizdan cheksiz minnatdorman!

OTALARCHA FAXR VA SHUKRONALIK

– O'g'limiz bolaning hayotini saqlab qolganini ijtimoiy tarmoqlar orqali bildik, – deydi Rasuljonning otasi Adhamjon Ahmedov. – Darhol unga qo'ng'iroq qildim. Hammasi yaxshiligini bilib, ko'nglim xotirjam tortdi. O'sha kuni kechqurun meni o'g'limning ishxonasiga chaqirishdi. U yerda Toshkent shahar IIBB rahbari, Yakkasaroy tumani hokimi va boshqa mutasaddilar o'g'limni taqdirlashdi. Tadbirida ishtirok etarkanman, farzandimning ortidan rahmatlar eshitib, boshim ko'kka yetdi, u bilan faxrlandim. Ayniqsa, bolaning onasi ko'zlariga yosh olib, chin dildan minnatdorlik bildirganida o'zimni tutib turolmadim.

Aytgancha, kelinim Muhayyoxon ham xodima. Ular oilada ham, mas'uliyatli kasbda ham bir-biriga yelkadosh. Endigina ikki oylik bo'lgan nabiramız Muhammadjon – ko'zimizning quvonchi. U ham

kelajakda ota-onasi singari el-yurtga nafi tegadigan inson bo'lib ulg'aysin.

EZGU ISHNING HALOVATI

Bir bolaning umrini asrab qolishdek ezgu ish ko'ngliga halovat, ko'ziga shijoat bo'lib ko'chgan qahramonimiz bilan Bo'rijar kanali qirg'oqlarida yo'l-yo'lakay suhbatlashar ekanmiz, uning sergak nigohlari bir soniya bo'lsa-da, atrofnı kuzatishdan tinmadi. Bu uning o'z kasbiga va qasamyodiga bo'lgan sadoqatidan dalolat edi.

Sharaflı xizmatda sobitqadam safdor Rasuljon Jo'rayev bilan xayrlashib ortga qaytar ekanmiz, fidoyi xodimning mardligi shunchaki xizmat burchi emas, balki katta yurak, yuksak insoniylik va cheksiz mehr-oqibat namunasi ekani-ga yana bir bor amin bo'ldik. Qahramonlik Rasuljon kabi tinchligimiz posbonlarining yurak urishida, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa-da, boshqalarning umrini saqlab qolayotgan fidoyilarning mardligida yashayveradi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

KATTA LEYTENANTNING JASORATI

Joriy yilning 1-avgust kuni Toshkent shahri Sergeli tumanidagi «Daryobo'yi» mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar-ni ko'zdan kechirayotgan tuman hokimi va mas'ullari ko'p qavatli uylarning birida balkonda turib yordam so'rab yig'layotgan uch yoshlar atrofıdagi qizaloqni ko'rib qolishadi. Uning qo'rquv aralash xatti-harakatlari barchani xavotirga soldi. Zudlik bilan tuman IIOFMB 2-son IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Muhiddin Nuriddinov voqea joyiga yetib keldi. Surishtirish natijasida uyda ikki nafar yosh bola – uch yoshli qizaloq va uning bir yarim yoshli singlisi yolg'iz qolib ketganligi ma'lum bo'ldi. Ota-onasi bozorga chiqib ketgan ekan.

Bir necha daqiqa katta-lar uchun qisqa vaqt bo'lishi mumkin, ammo qo'rquv ichidagi jajji bolalar uchun bu juda uzoq fursat. Shu sababli katta leytenant Muhiddin Nuriddinov darraxtga chiqib, balkon orqali xonadonga kirdi va bolajonlarni tinchlantirib, ota-onasiga sog'-salomat topshirdi.

Bugun biz tezkor axborot almashinuvi davrida yashayapmiz. Biror voqea sodir bo'lishi bilan uning tasviri bir zumda minglab, hatto millionlab insonlarga yetib borishi mumkin. Ushbu holat aks etgan videotasvirlar ham ijtimoiy tarmoqlarda, xususan, Instagram platformasida keng tarqaldi. Izohlarda xodimning tezkorligi, jasorati va bolalar xavfsizligiga befarq bo'lmagani alohida e'tirof etildi.

Huquq-tartibot posbonining oddiy, ammo o'z vaqtida amalga oshirgan mardona harakati minglab insonlarda iliq taassurot uyg'otdi. Ichki ishlar organlari tizimida besh yildan buyon xizmat qilib kelayotgan Muhiddin Nuriddinovning o'z haqiqati bor. U faqat lavozim yo'riqnomasida belgilangan vazifalarnigina bajarishni emas, avvalo, inson taqdiriga daxldor bo'lish, zarur pallada yordam qo'lini cho'zishni vijdon amri deb biladi.



Dilrabo ABDUHAMIDOVA,
mutaxassis-muxbir,
katta leytenant.



Tarix tilga kirganda

SOYA BERGAN DARAXT VA
SUKUT SAQLAGAN TARIX

Xorazm viloyat ichki ishlar boshqarmasiga yangi rahbar tayinlangan paytlar edi. Viloyat IIB boshlig'i fuqarolar qabuli davomida bir jihatga e'tibor qaratdi. Odamlar boshqarma manzilini rasmiy nom bilan emas, boshqacha atashardi.

- «Gujum tagi»ga boraymi?
- «Gujum tagi»da ishlaysizmi?

Bu ibora qayta-qayta uchrayverdi. Bir kuni boshqarma boshlig'i maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik Rustam Rahimovni huzuriga chaqirdi.

– Rustam aka, shu «Gujum tagi» degani nima o'zi? Nega odamlar bu joyni shunday ataydi?

Savol oddiy edi. Ammo javob ortida salkam bir asrlik dard mujassam edi.

DARAXT OSTIDA
YASHIRINGAN TARIX

1936-yillar viloyat ichki ishlar idorasi va NKVD bitta binoda faoliyat yuritgan.

Keyinchalik binoda yong'in sodir bo'ladi. Ko'plab hujjatlar, buyumlar va tarix bilan birga xotiralar, daraxtlar ham kulga aylanadi. Bino qayta ta'mirlangach, kirish qismi oldiga qaytadan ikki tup gujum daraxti ko'chati o'tqaziladi. Yillar o'tib, nihollar ulkan daraxtga aylanadi. Ammo xalq xotirasida bu joy daraxtlar tufayli emas, boshqa sabab bilan «Gujum tagi» bo'lib qoladi. Chunki bu yerga chaqirilganlarning ko'pchiligi ortga qaytmagan edi...

QAYTIB CHIQMAGANLAR

Xalq bu manzilni qo'rquv bilan tilga olardi. «Gujum tagiga olib ketishibdi...» degan gapning o'zi kifoya

edi. Ko'pchilik uchun u hukm kabi yangrardi.

Bu yerga keltirilgan inson qamoqqa olinishi, surgun qilinishi yoki mash'um «uchlik» hukmi bilan o'limga yuborilishi odatiy hol edi. Tergov qisqa, himoyalanih deyarli imkonsiz bo'lardi. Natija esa oldindan ma'lum...



Shu bois xalq orasida «Gujum tagi» nafaqat manzil, balki dahshat ramziga aylangan edi.

USTOZLAR AYTIB
BERGAN SIR

Viloyat IIB boshlig'i maslahatchisi, iste'fodagi polkovnik Rustam Rahimovning bu mavzuga qiziqishi ancha avval boshlangan. 1970-yillar boshida u viloyat IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari edi. O'sha paytda Rustam aka bu yerda xizmat qilgan faxriy xodimlar bilan suhbatlashadi. Shulardan biri – sobiq starshina, vaxtyor lavozimida ishlagan Olloyor Rahimov dahshatli haqiqatlarni aytib beradi. Hovlisida ichki qamoqxona

bo'lgan idorada mashhur «uchlik» komissiyasi faoliyat yuritgan. Hukmlar tez chiqarilgan. Ba'zan esa ijrosi undan ham tez bo'lgan.

Olloyor aka ayrim hukmlarning bajarilishiga shaxsan guvoh bo'lganini aytib beradi. Bu hikoyalarni eshitgan R. Rahimovning qalbida

bitta orzu tug'iladi: bir kun kelib bu tarix yozilishi kerak.

YER OSTIDAN CHIQQAN
HAQIQAT

1992-yili Davlat xavfsizlik idorasi boshqa manzilga ko'chirilgach, bino to'liq ichki ishlar organlari tasarrufiga o'tadi. Ta'mirlash va qayta qurish tadbirlari boshlanadi. Qazish ishlari davomida kutilmagan voqea yuz beradi – yer ostidan inson suyaklari chiqadi. Bu oddiy topilma emas, o'tmishning jim yotgan guvohlari edi.

– Hammasi ko'zim oldida bo'lgan, – deydi Rustam Rahimov.

O'sha payt unda voqeani oshkor qilish niyati ham bo'ladi. Ammo

yuqori rahbariyat bunga ruxsat bermaydi. Topilgan suyaklar yig'ilib, haqlariga tilovat qilinib, Urganch shahridagi Oxun bobo qabristoniga dafn etiladi. Shu tariqa tarix yana sukutga cho'madi.

KITOBGA AYLANGAN XOTIRA

Polkovnik Ravshan Sultonxo'jayev bu voqealarni eshitgach, bir taklif beradi:

– Nega shu tarixni yozmaymiz?

Avvaliga kichik maqola yozish rejalashtiriladi. Lekin ma'lumotlar ko'payib ketadi. Har bir hujjat yangi haqiqatni ochardi. Har bir xotira yangi savollar tug'dirardi. Natijada maqola kitobchaga aylanadi. Shunday qilib «Gujum tagi» kitobi dunyo yuzini ko'radi. Keyinchalik uning mantiqiy davomi sifatida «Gujum tagi-II» ham nashr qilinadi.

Unda xalqning qalb yarasi, sukut saqlagan tarix bor.

GUJUMNING O'GITI

«Agar gujum daraxti tilga kirs, bugungi avlodlarga nima der edi?» – degan savolga Rustam aka ikkilanmasdan shunday javob beradi:

– Ota-bobolarimiz «Gujumdek soya bersin» deb duo qilgan. Bunda juda chuqur ma'no mujassam. Xalq uchun yashagin, xalqqa xizmat qilgin, degani. Menimcha, gujum ham shu gapni aytgan bo'lardi.

Oradan qariyb bir asr o'tdi. Binolar o'zgardi. Rahbarlar almashdi. Davrlar yangilandi. Ammo ikki tup gujum daraxti hanuz sukut saqlab turibdi. Balki ular qaytib chiqmaganlarning izlarini hali-hanuz qo'riqlayotgandir...

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Huquqiy maslahatxona

SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ!

? Men yuqori idoralarga ariza yozgan edim. Murojaatingizni ko'rib chiqish tugatilgan, – deb javob berishibdi. Shu to'g'rimi?

Alisher Shotursunov,
Toshkent shahri.

! O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, murojaatlarni ko'rib chiqish quyidagi hollarda tugatiladi:

- takroriy murojaatda yangi vajlar keltirilmagan va avvalgi murojaat bo'yicha javob berilgan bo'lsa;

- murojaat qiluvchi murojaatini chaqirib olsa yoki ko'rib chiqishni tugatishni so'rasa;

- murojaat qiluvchini chaqirish imkoni bo'lmasa;
- chaqirilgan murojaat qiluvchi kelmasa;

- jismoniy shaxs vafot etganidan so'ng murojaatni ko'rib chiqish huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;

- murojaatni ko'rib chiqishni tugatish to'g'risidagi qarorni davlat organi, tashkilot rahbari yoki vakolat berilgan mansabdor shaxs qabul qiladi;

- murojaat chaqirib olinganda, u uch kun ichida murojaat qiluvchiga qaytariladi.

? Turmush o'rtog'im ichki ishlar organlarida xizmat qiladi. Men yaqinda kasalxonaga tushib qoldim. Shunga organ xodimining oila a'zolari uchun ijtimoiy himoya bormi?

Lobar Shodiyeva,
Samarqand viloyati,
Ishtixon tumani.

! Ichki ishlar organlari xodimlari uchun quyidagi ijtimoiy himoya kafolatlari mavjud.

Betob xodimlarni davolash uchun – pul ta'minoti (oylik maoshi)ning besh baravarigacha bir martalik moddiy yordam;

Betob yaqin qarindoshlarini davolatish uchun – bazaviy hisoblash miqdori-ning ikki yuz baravarigacha bir martalik moddiy yordam;

Sanatoriy-kurort muassasalarida davolanish va dam olish uchun – pul ta'minoti (oylik maoshi)ning ikki baravarigacha moddiy yordam;

Uy-joyga ega bo'lish yoki yashash sharoitini yaxshilash uchun – besh yildan oshmaydigan mud-

datga bazaviy hisoblash miqdori-ning ming baravarigacha foizsiz qarz;

10 yildan ortiq xizmat stajiga ega xodimlarga yengil avtotransport uchun – bazaviy hisoblash miqdori-ning 300 baravaridan oshmagan miqdorda 3 yil muddatga qarz;

To'y va dafn marosimlari uchun – pul ta'minoti (oylik maoshi)ning ikki baravarigacha bir martalik moddiy yordam.

Xoja Axmed MATYAKUBOV,
IIV Yuridik ta'minlash boshqarmasi yetakchi yuriskonsulti, kapitan.

Молодежь — наше будущее

«СЧАСТЛИВОГО ПУТИ!» – НЕ ПРОСТО СЛОВА

Столичный трафик – это непрерывный пульс большого города, где поток машин ежеминутно сплетается в единое целое. Управлять стремительным ритмом и обеспечивать порядок на магистралях – задача, требующая высокой оперативности и профессионализма. Именно этими качествами обладает инспектор 7-й мобильной группы 2-го батальона ДПС УБДД ГУВД Ташкента младший сержант Кахрамон Назаралиев.

В ОВД герой очерка с 2022 года. Он выпускник Наманганского инженерно-технологического института. Техническое образование дает о себе знать: к службе младший сержант подходит системно и взвешенно. В плотном потоке автомобилей сотрудник видит не просто машины, а динамическую систему, где важно заранее просчитать потенциальный риск и не допустить аварийной ситуации. При этом

инспектор способен тонко чувствовать психологическое состояние людей. Он знает: неуверенное маневрирование, суетливые движения за рулем или резкая смена полосы – сигналы, за которыми зачастую кроется рассеянность, стресс, потеря концентрации внимания...

– Ритм движения колоссальный, – говорит К. Назаралиев. – Моя задача не просто зафиксировать нарушение, а вовремя предупредить опас-



ность, успокоить человека за рулем, дать ему верный ориентир.

Сегодня служба инспекторов оснащена современными техническими средствами. К примеру, мобильные планшеты позволяют без задержек получать необходимые данные, сокращая время

стандартной проверки и исключая спорные моменты. Это освобождает ресурс для главного – профилактики.

... На снимке К. Назаралиев запечатлен во время несения службы на одной из ключевых артерий города – улице Шота Руставели. После реконструкции здесь

кардинально изменилась схема движения: запущенна пилотная линия для скоростного автобусного транспорта (BRT), оборудованы велодорожки, новые пешеходные переходы. В условиях преобразованной инфраструктуры от инспектора требуется повышенное внимание.

...Какими бы сложными ни выдались служебные будни, дома Кахрамона ждет надежный тыл: супруга Мохинур и трехлетняя дочь Саъдия. Окруженная теплом родного очага, малышка растет в атмосфере заботы и уважения к ценностям, которые родители бережно передают ей с малых лет.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.
Фото Икрома ХАСАНОВА.

Ветераны в строю

ТРАДИЦИИ НАСТАВНИЧЕСТВА

Проводимые в подразделениях «Встречи трех поколений» укрепляют в сердцах молодежи чувство верности Родине и уважение к выбранной профессии.



Одно из таких значимых мероприятий состоялось в ОВД Кегейлийского района. В нем приняли участие советник министра внутренних дел Республики Каракалпакстан полковник в отставке Оринбай Турдаков, председатель Совета ветеранов МВД Каракалпакстана полковник в отставке Фархат Санкибаев, члены районной ветеранской организации и личный состав райотдела.

Представители старшего поколения поделились воспоминаниями о годах службы, подчеркнули, что на каждого сотрудника возложена огромная ответственность за мирную и спокойную жизнь соотечественников.

– Благодаря реформам последних лет оснащенность ОВД спецсредствами и автотранспортом вышла на принципиально новый уровень. Соответственно изменились стиль работы и требования, предъявляемые к кадрам, – отметил полковник в отставке Фархат Санкибаев. – Новый подход сформировался и в воспитательной работе. Такие встречи укрепляют связь поколений, помогают внедрять ветеранский опыт в практику, становясь настоящей школой для молодых специалистов.

Аналогичное мероприятие прошло и в ОВД Бозатауского района.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика Каракалпакстан.

Турнир

МАСТЕРСТВО ТОЧНЫХ ХОДОВ

В целях обеспечения исполнения Указа главы государства «О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта» и соответствующего приказа министра внутренних дел среди сотрудников проводятся спортивные соревнования.



В Андижанской области состоялся турнир по шахматам на Кубок начальника УВД. В первенстве приняли участие свыше 30 сотрудников, представлявших структурные подразделения и территориальные отделы ОВД области. Участники показали высокий уровень логического мышления, точный расчет комбинаций.

По итогам бескомпромиссных партий призовые места распределились следующим образом: 1-е место – майор Фаррухбек Кахрамонов; 2-е место – майор Мансурбек Азизов; 3-е место – лейтенант Асилбек Шералиев. За активное участие и проявленную волю к победе специальным призом был отмечен лейтенант Маматумар Косимов. Им в торжественной обстановке были вручены дипломы, медали и памятные подарки.

Соб. корр.

Андижанская область.



Heroes of the week

WHO TAMES THE WAVES
OF THE BURIJAR

Those who risk their own lives to save others in unexpected and challenging situations are true heroes. Private Rasuljon Jurayev, an inspector of the Patrol and post service detachment of the Public order maintenance department of the Yashnobod district DIA, is one of these brave officers.



When Rasuljon saw 13-year-old Muhammad fall into the Burijar canal and be swept away by

the current, he did not hesitate for a moment and jumped into the water. He reached the boy, took hold of his hand, and, with the help of another citizen, brought him safely to shore.

Muhammad's mother, Gulchehra Avezova, learned about the incident through a video shared on social media. She expressed her heartfelt gratitude for saving her son's life.

The hero's father, Adhamjon Ahmedov, said he was immensely proud of his son's courage. Rasuljon's bravery was duly recognized by the leadership of Tashkent city DIA, the Yashnobod district administration, and other officials. His wife, Muhayyokhon, also serves in the internal affairs system.

Saving a person's life is one of the greatest acts of kindness. The courage of private Rasuljon Jurayev is a shining example of devotion to duty, humanity and true bravery.

THE COURAGE OF SENIOR
LIEUTENANT NURIDDINOV

While inspecting ongoing work in the «Daryobuyi» mahalla of Sergeli district, Tashkent, the district governor and officials noticed a little girl standing on the balcony of a multi-story building and crying for help. Senior lieutenant Muhiddin Nuriddinov, a prevention inspector of the Prevention department of internal affairs – 2 of the Sergeli district DIA, immediately arrived at the scene.

It was discovered that a three-year-old girl and her one-and-a-half-year-old sister had been left alone in the apartment while their parents had gone to the market. Without hesitation, senior lieutenant Muhiddin Nuriddinov climbed a tree and entered the apartment through the balcony. He calmed the children and safely handed them over to their parents.

Videos of the incident spread widely on social media, including Instagram, where many users praised the officer's quick response, courage, and concern for the children's safety.

Having served in the internal affairs system for five years, Muhiddin Nuriddinov considers caring about people's lives and extending a helping hand when needed not only a professional duty, but also a



matter of conscience. His courageous actions became a vivid example of the dedication and humanity expected of a law enforcement officer.

To great achievements

A JOURNEY THAT BEGAN
WITH THE FAMILY

The most influential factor in raising a child is the personal example set within the family. In the Abdullayev family, knowledge, hard work, devotion to the Motherland, and responsibility are among the core values.

Gayrat Abdullayev, chief inspector of the Spiritual and educational affairs service of the Ministry of Internal Affairs, lieutenant colonel, has been serving in the internal affairs bodies for 26 years. His wife, Malika Abdullayeva, is an English teacher at a specialized boarding school under the Ministry of internal affairs. She has 17 years of teaching experience, holds the «Excellence in public education» badge, is a teacher of the highest qualification category, and graduated from Webster University in 2024.

The parents' commitment to education is also reflected in the achievements of their only son, Javohir Abdullayev. A graduate of the Muhammad al-Khwarizmi specialized school, Javohir scored 7.0 on the IELTS and 1480 on the SAT. He took second place in the Open Data Hackathon championship and reached the semifinals of the Harvard Business Case Competition.

In 2026, Javohir became a recipient of the El-Yurt Umidi Foun-



dation scholarship and will continue his studies at the New York University Shanghai campus. His main goal is to acquire advanced knowledge and technologies and return to Uzbekistan as a highly qualified specialist to contribute to the development of his homeland.

A journey that began with the family now continues toward the wider world.

Road safety

«SAFE AND HEALTHY COUNTRY»

Comprehensive measures are being carried out during the second phase of the «Safe and healthy country» operational and preventive campaign, aimed at ensuring road safety and preventing violations.

The Andijon regional DIA Public security service Road safety department had identified 59 035 traffic violations. The most common violations included running red lights, illegally changing the tint of vehicle windows, and driving without the required documents.

– The measures taken are aimed not only at identifying violations but also at increasing drivers' sense of responsibility, – said lieutenant colonel Rustamjon Maqsud-

khojayev, head of the regional DIA Public security service Road safety department.

As part of efforts to improve road infrastructure, 2 330 traffic lights received technical maintenance, while 54 traffic lights, 3 929 road signs, and 80 raised pedestrian crossings were installed. In addition, 318 080 square meters of road markings were applied and 22 844 meters of safety barriers were installed.



During the campaign, 109 029 awareness-raising activities were conducted across the region.

The main goal is not merely to penalize violations, but to create a safer road environment through prevention, public awareness, and improved infrastructure.

Safe roads begin with the responsibility and vigilance of every driver and pedestrian.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Oramizdagi odamlar

VAQT VA YURAK OHANGI



«Chiq-chiq»lab tinimsiz odimlayotgan soat millariga boqib, hayotning har lahzasi bebaholigini his etganmisiz? Oramizda shunday insonlar borki, ular soat millari yurishini shuncha-ki kuzatib qolmay, uni borlig'i bilan tinglaydi, yanglishgan joylarini mehr bilan to'g'rilaydi. Qariyb qirq yildan buyon soatsozlik qilib kelayotgan Farhod Orifjonov ana shunday fidoyi kasb egalaridan biridir.



Farhod akaning soatsozlik olamiga kirib kelishi tasodif emas. Bu boradagi iliq xotiralarni yodga olar ekan, uning ko'zlariga, so'zlariga yoshlik nafasi ko'chgani shundoq seziladi.

– Menda soatsozlikka bo'lgan qiziqish o'quvchilik yillarimda, Sayyora xolam tufayli uyg'ongan, – deydi qahramonimiz. – U kishi zavodda maishiy texnika yig'ish bo'limida soatsoz edi. Xolam biznikiga mehmonga kelganida soatlar qanday yasashini takror-takror so'raganim kechagidek esimda. Shu bois maktabni tugatiboq, u ishlaydigan zavodga ishga kirganman. Avvaliga biroz qiyin tuyulgan kasb sirlarini o'rganishimda maktabda fizika fanini yaxshi o'qiganim juda qo'l keldi. Keyinchalik tajribali ustozlarim – Dilshod akadan qo'l soatlari, Rustam akadan esa devor soatlarini tuzatishni o'rgandim. Bugun o'ylab qaragam, ularning har bir o'giti va ustaxonadagi

mashaqqatli mehnat meni na faqat soatsoz usta bo'lishimda, balki hayotda o'z yo'limni topishimda ham muhim poydevor bo'lgan ekan.

Farhod aka tabiatan og'ir-bosiq, ko'ngli ochiq, samimiy inson. U o'z kasbini san'at deb biladi va soatlarning nozik mexanizmlarini yurakdan his qiladi. Shu bois uni haqli ravishda «soatlar shifokori» deyish mumkin.

Darvoqe, uning qirq yillik mehnat faoliyati davomida ustaxonasi eshigidan qanchadan-qancha taniqli shaxslar, oddiy insonlar kirib kelmadi, deysiz.

Chet ellik sayyohlarning noyob soatlaridan tortib, Birinchi Prezidentimizning qo'l soatigacha Farhod akaning qo'lidan o'tgan.

– Bir kuni O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf kelib qoldilar, – deydi qahramonimiz. – O'quv yili boshlanishiga uch-to'rt kun qolgani aytib, qo'lidagi soatga

ishora qildilar-da: «Qizimning soati, budilnigi buzilib qolibdi, shuni ko'rib berasizmi, usta?», dedilar. Oradan ikki kun o'tib kelganlarida soatni tuzatib qo'yganimni ko'rib, juda xushmuomalalik bilan minnatdorlik bildirib ketdilar. Yana bir kuni yozuvchi Tohir Malik kirib keldilar. Qisqa suhbat davomida adibning har bir so'zidagi salmoqdan nafaqat men, balki hamkasblarimni ham hayajon bosgani hanuz esimda.

Mana shu mo'jaz ustaxonamda Hasan Rajabiy, Munajat Yo'lchiyeva, Zulayho Boyxonova kabi ustoz san'atkorlar bilan yuzma-yuz suhbatdosh bo'lish nasib etdi. Shuningdek, deputatlar, huquqshunoslar va turli boshqa soha vakillarining hojati chiqarganimda o'z kasbimdan cheksiz faxrlanaman.

Farhod aka uchun har bir soat – «tirik jon». U soatlarning to'xtab qolishini istamaydi. Buzilgan mexanizmlarini tuzatib, ularning yana bir maromda

chiqillay boshlashidan kuch oladi, jonli nafasini his etadi. Ba'zan ta'mirlangan soat bir-ikki kun o'tib yana to'xtab qolsa va uni qaytarib olib kelishsa, ustaning ko'ngli xira tortib, tushkunlikka tushishi ham bor gap. Bu uning o'z ishiga qanchalik mas'uliyat bilan yondashishidan dalolat beradi.

– Soat millarining siljishi inson umri o'tib borayotganini anglatuvchi abadiy haqiqatdir, – deydi Farhod aka. – Bunda har soniyaning qiymatini yurakdan anglab, qadrlash kerak. Soatsozlik nihoyatda sabr va irodani talab etadigan kasb. Men shu ishga mehr qo'yib, kam bo'lmadim. Taqdirimdan roziman. Shukur, ayolim Naimaxon bilan ahil-inoqlikda farzandlarimizni el-yurtga nafi tegadigan insonlar qilib ulg'aytirdik. Hozir qizimiz Nafisaxon dorishunos, o'g'limiz Sherzodjon tadbirkor sifatida faoliyat yuritmoqda. Nabiralarimiz Humoyunjon, Sa'diyaxon, Muhammadjon ko'zimiz quvonchidir.

Kasbi va oilaviy hayotidan ko'ngli to'lib umrguzaronlik qilayotgan soatsoz Farhod aka gap orasida ko'plab shogirdlar tarbiyalashni maqsad qilganini ham ta'kidlaydi. Ammo ko'pchilik yoshlarning bu kasb sirlarini o'rganishga sabri yetmaganidan yuragining bir chetida og'riq borligini yashirmadi. Shu bilan birga, bugungi yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intilishlariga havas qilishini alohida e'tirof etdi.

Vaqt va yurak ohangini birlashtira olgan ustaning hayot yo'li barchamiz uchun bir haqiqatni uqtiradi: qaysi kasbni egallashdan qat'i nazar, har bir ishga mehr bilan, astoydil yondashilsa, u albatta san'at darajasiga ko'tariladi hamda jamiyatda munosib e'tirof va hurmat keltiradi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Yangi atamalar

ATAMA	KELIB CHIQISHI VA MA'NOSI	QO'LLANILISH SOHALARI	MUQOBIL ATAMA	TUSHUNCHANING IZOHI	MUQOBIL ATAMA HAQIDA
Datchik 	Rus tili orqali o'zlashgan so'z bo'lib, «kichik uzatish, qabul qilish qurilmasi» ma'nosini bildiradi.	«Datchik» atamasi texnika va boshqa turli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda hamda qonunchilik hujjatlarida qo'llanilmoqda.	Sezgich 	Tashqi ta'sir (harorat, bosim, harakat) ma'lumotlarini foydalanish mumkin bo'lgan shaklga aylantirish orqali o'lchov natijasini qabul qilishga, uzatishga mo'ljallangan qurilma. Qonunchilik hujjatlarida «AYOQShda namuna olgich va suv sezgich pastasi» mavjudligi, «kuchlanishni monitoring qilish uchun avtonom sezgichlar» tarzida qo'llash tajribasi bor. «Sezgich» atamasi hozirda ijtimoiy tarmoqlar, e'lon va reklamalarda qo'llanilmoqda.	«Sezgich» atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.
Dedlayn 	Ingliz tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, «yakun chizig'i», «tugash chizig'i», «so'ngi chiziq», «o'lim chizig'i» kabi ma'nolarni bildiradi. Hozirda «oxirgi muddat», «so'ngi muddat» ma'nolarida ishlatilib kelinmoqda.	«Dedlayn» atamasi tegishli sohalarda, rasmiy ish yuritishda, jonli muloqotda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar hamda e'lonlarda qo'llanilmoqda.	So'ngmuddat 	«So'ngmuddat» so'zi atama sifatida o'zbek tilida yangi yasilib, muqobil o'rnida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.	«So'ngmuddat» atamasi o'zbekcha muqobil sifatida tushunchaning ma'nosini ifodalaydi.

YANGI YO'L BO'SAG'ASIDA

Yosh avlod tarbiyasi jamiyatning eng muhim vazifalaridan biridir. Bugungi o'smir – ertangi kunning faol a'zosi, oila va jamiyat tayanchi. Shu bois hayotda xatoga yo'l qo'ygan o'smirlarga faqat qilmishi orqali baho berish emas, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim va kasb egallashiga imkoniyat yaratish, jamiyatga qayta moslashishiga ko'maklashish muhim. Zero, xatosini anglab, to'g'ri xulosa chiqarib, yangi hayot boshlash imkoniyatini berish – chinakam insonparvarlik ifodasidir.

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining Birinchi mintaqaviy hudud 24-sonli tarbiya koloniyasida ham o'smirlar bilan ishlashda ana shu tamoyilga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bu yerda ta'lim va tarbiya jazoni o'tash jarayonining muhim qismi bo'lib, asosiy maqsad o'smirlarning bugungi holati emas, balki uning ertangi kuni bilan ishlashdan iborat.

– Koloniyada 180 nafardan ziyod o'smir tarbiyalanmoqda, – deydi tarbiya koloniyasi boshlig'i, podpolkovnik Shahnoza Hidayatova. – Har bir o'smirlarga, avvalo, jazo olayotgan shaxs sifatida emas, ta'lim va tarbiyaga muhtoj yosh inson sifatida yondashiladi. Shu bois o'qituvchilarning mas'uliyati ham juda katta.

O'smirlar har kuni darslarda ishtirok etadi. E'tiborli jihati shundaki, ta'lim jarayonida maxsus kiyimdan foydalanilmaydi. Ular maktab o'quvchilari kabi darsga kirib borishadi. Kiyimlarida esa 35-maktab o'quvchisi ekanini bildiruvchi shevron bor. Bunday yondashuv zahirida muhim maqsad mujassam: o'smir o'zini, avvalo, o'quvchi sifatida his qilishi kerak. Chunki inson o'zini qanday his qilsa, kelajagini ham shunday tasavvur qila boshlaydi.

«O'G'LIMIZDA ANCHA IJOBIY O'ZGARISHLAR BO'LDI...»

Shu payt xonadagi telefon jingirladi.

– Allo, eshitaman, – dedi Shahnoza Hidayatova.

– Assalomu alaykum, opa. Men Rustamman, Dostonning dadasi...

Go'shak ortidagi ovozda samimiylik sezilib turardi.

– O'sha kuni sizga minnatdorlik bildirgani kirmoqchi edik, uchrasholmadik. O'g'limiz bag'rimizda, tarbiyasida ham ancha ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Rahmat sizlarga. Dostonjon Axborot texnologiyalari universitetiga hujjatlarini topshirdi, mandatni kutyapmiz. Bergan ta'lim

mingiz tufayli. Xudo xohlasa, yana yaxshi xabarlar bilan qo'ng'iroq qilaman.

– Rahmat, omadini bersin! Biz ham yaxshi xabarlar kutamiz. Salomat bo'ling!

Qo'ng'iroq tugadi.

– Doston juda kitobsevar edi. Ishonasizmi, shu yerning o'zida 200 dan ortiq kitob mutolaa qildi. Men uning oliygoh talabasi bo'lishiga astoydil ishonaman, – dedi u. – Bu yil 21 nafar tarbiyalanuvchi oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirdi. Bu shunchaki oddiy raqam emas. Uning har biri ortida alohida taqdir, oila va kelajakka bog'langan orzu bor.

– «Ikkinchi imkoniyat» loyihasi doirasida 24-sonli tarbiya koloniyasida yoshlarga qanday zamonaviy kasb va ko'nikmalar o'rgatilmoqda? – deb so'raymiz Shahnoza Hidayatovadan.

– Loyihaning asosiy maqsadi, – dedi u, – yoshlarga jazo muddatini o'tash davrida zamonaviy bilim

hit va olisdan eshitilayotgan qadam tovushlari... Bu yerda har bir kitobning o'z hikoyasi bordek. Ammo bugun biz kitoblar emas, ularni mutolaa qilayotgan ikki o'smirlarning taqdiri haqida suhbatlashdik. Ularning ism-shariflarini ota-onalaridan ruxsat olmaganimiz sababli, to'liq keltira olmaymiz. Ammo aytgan gaplari, qilgan xulosalari va kelgusi rejalari ular haqida ko'p narsani anglatadi.

«PESHONAMDAGI TAMG'ANI O'QISHIM VA VATANGA XIZMATIM BILAN YUVAMAN»

– Men 2008-yilda Toshkent viloyatida tug'ilganman, – deydi O. Sh. – Axborot texnologiyalari yo'nalishiga hujjat topshirdim. Hozir mandat natijalarini kutyapman. O'qishga tayyorlanish uchun koloniya rahbariyati barcha sharoitlarni yaratib berdi. Ustozlar ham katta yordam berishdi.

Oilada ikki farzandimiz, ukam bor. Otam davlat xizmatchisi,

katta. O'qishimni davom ettirmoqchiman.

Bu gaplarni aytarkan, uning ovozi qat'iyat seziladi. Balki insonning o'z xatosini anglab, undan xulosa chiqara olishi ham yangi hayotning birinchi qadamidir.

«ONAMNI TALABA BO'LIB KUTIB OLSAM DEYMAN...»

– Qishloq xo'jaligi yo'nalishiga hujjat topshirdim, – deydi D. E. – Fizika, matematika, ona tili va tarix fanlaridan imtihan bo'ldi. Ayrim savollar ancha qiyin tushdi, lekin o'ylab, to'g'ri javob belgilashga harakat qildim.

Onam xorijsa ishlash uchun ketgan. Otamni esa bolaligidan beri ko'rmaganman. Buvimning qo'lida katta bo'lganman. Bu yerda o'tirishimda o'zimni ayblayman. Menga eng katta ta'sir qilgan narsa – telefon. Endi o'ylab qarash, ota-ona farzandini nazorat qilishi, uning kimlar bilan yurgani va nimaga qiziqishiga e'tibor berishi kerak ekan. Bilasizmi, 7 sentabrda tug'ilgan kunim. Onam 5 sentyabrda xorijsan qaytarkan va meni ko'rgani kelarkan. Onamni talaba bo'lib kutib olsam deyman...

Bu jumla ortida katta bir orzu bor. U onasi bilan uchrashganda qo'lida sovg'a emas, balki o'zgargan hayoti, erishgan natijalari va talabalikka yetaklagan orzusi bo'lishini istaydi. Bu esa tarbiyaning eng muhim natijalaridan biridir.

Kutubxonada yana sukut cho'kdi. Raflardagi kitoblarga qarab,



va kasb-hunar egallash imkonini berish. Bu jarayonda o'smirlarning qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib, kasblarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Loyiha doirasida dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish uchun imkoniyatlar yaratiladi. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarga respublika miqyosida tan olinadigan malakaviy sertifikatlar berilishi ham ularning kelgusida mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

KUTUBXONADAGI ORZULAR

Suhbat davomida biz tarbiyalanuvchilar orasida o'qishga hujjat topshirgan ayrim o'smirlar bilan ham suhbatlashishga ruxsat so'radik. Ayni paytda maktabda ta'til davri bo'lgani bois, suhbat uchun shinamgina kutubxonani tanladik.

Kutubxonada sukut hukmron. Raflarda tizilgan kitoblar, jimjit mu-



onam esa uy bekasi. Oilamizdagi tartib-intizomga ko'pchilik havas qilardi. Hayotda yo'l qo'ygan xatoyim tufayli Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan ozodlikdan mahrum etildim. Hammasi hazil-huzuldan boshlanib, keyin jiddiy tus oldi. Bugun orqaga qarab, bir narsani yaxshi tushundim: inson jahli chiqqan paytda ham o'zini boshqara bilishi, g'ururga berilmasligi, bir zumlik his-tuyg'u bilan qaror qabul qilmasligi kerak ekan. Hozir esa rejalarm

bir fikr xayoldan o'tdi: kitobning eng muhim xususiyati uning oxirgi sahifasi emas, balki yangi sahifani ochish imkoniyatidir. Kechagi xatolarni ortga qaytarib bo'lmaydi. Ammo ulardan xulosa chiqarib, yangi yo'l tanlash mumkin. Ba'zan insonga hayotini o'zgartirish uchun katta narsa emas, bir imkoniyat va unga ishonch kerak. «Ikkinchi imkoniyat»ning haqiqiy mohiyati ham shunda.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Munosabat

TARBIYADA MEHR MEHVARDIR

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan bir video ko'pchilikning qalbini larzaga soldi. Uni ko'rgan har qanday inson, ayniqsa, onalar befarq qolishi qiyin. To'g'risi men videoni oxirigacha ko'ra olmadim. Chunki unda tasvirlangan holat ruhiy jihatdan og'ir ta'sir qiluvchi voqealardan biri edi.

Tasvirlardan anglashilishicha, bir erkak 9 yoshli qizini jazolash maqsadida unga nisbatan tahqirlovchi va shafqatsiz munosabatda bo'lgan. Videoda u qiziga tezak yedirishga urinayotgan lavha aks etgan. Hodisani oilaning yana bir farzandi ham kuzatib turgani esa vaziyatning yanada og'irligini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida sodir bo'lgan mazkur holat bo'yicha voyaga yetmagan qizga himoya orderi berilgan. Tuman IIB huzuridagi tergov guruhi tomonidan tegishli moddalar asosida jinoyat ishi qo'zg'atilgan, gumonlanuvchi protsessual tartibda ushlangan va tergov harakatlari davom etmoqda. Bu voqea hosilasi sifatida muhim bir savol tug'iladi: tarbiya degani nima?

Tarbiya zo'ravonlik emas

Har bir ota-ona farzandini tarbiyalashi lozim. Ammo bu uning qadr-qimmatini poymol qilish, haqoratlash yoki shafqatsiz munosabatda bo'lishni anglatmaydi. Bola xato qilishi mumkin. Bunda uning yoshi, ruhiy holati, sog'lig'i va rivojlanish xususiyatlari inobatga olinishi shart. Agar 9 yoshli bolada peshob tutib tura olmaslik holati kuzatilsa, bu faqat intizomsizlik emas, balki tibbiy yoki psixologik muammoning ham belgisi bo'lishi mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday holatlar stress, kuchli qo'rquv, asab tizimi bilan bog'liq muammolar yoki boshqa kasalliklar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Demak, bunday vaziyatda jazolash emas, avvalo, shifokorga murojaat qilish, bolani tushunish va qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Qiz bola – kelajak tarbiyachisi

Xalqimizda qiz bolaga doimo alohida mehr bilan qaralgan, uni nozik gulga qiyoslashgan. Bu bejiz emas. Chunki qiz bola ertangi ona, oila tarbiyachisi, jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi shaxsdir. Qizaloqning ko'ngliga yetkazilgan har bir og'riq uning kelajak hayotida chuqur iz qoldirishi mumkin. Bolalikdagi tahqir, qo'rquv keyinchalik ishonchsizlik, ruhiy tushkunlik, xavotir, hatto avlodlar o'rtasida zo'ravonlikning takrorlanishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun farzandni tarbiyalash degani, uni sindirish emas, balki shaxs sifatida shakllantirishdir.

Nega bunday holatlar yuz beradi?

Bu kabi voqealar tasodifan sodir bo'lmaydi. Ularning zahirida ko'pincha tarbiya haqidagi no-

to'g'ri qarashlar, jahlni boshqara olmaslik, ruhiy bosim va ijtimoiy muammolar, bolalar huquqlari haqidagi bilimning yetarli emasligi, oilaviy zo'ravonlikni «ichki masala» deb qabul qilish kabi bir nechta omil yotadi. Eng achinarlisi, ba'zi insonlar hali-hamon qattiq jazo yaxshi tarbiya beradi, degan eskicha qarash bilan yashaydi. Aslida esa bunday holatda tarbiyalangan bola odobli emas, balki qo'rqqoq bo'lib ulg'ayadi.

Videoni tarqatishdan maqsad nima?

Bu yerda yana bir muhim masala bor. Bunday videolarni ijtimoiy tarmoqlarga joylash qanchalik to'g'ri? Bir tomondan, voyaga yetmagan bolaning shaxsiy hayoti va qadr-qimmatini himoya qilinishi kerak. Bunday tasvirlarning cheklovsiz tarqalishi bolaga keyinchalik ham ruhiy zarar yetkazishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, aynan shu kabi tasvirlar tufayli hu-

quqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik voqeadan xabardor bo'ladi. Balki, bu video tarqalmaganida, bolaning aynanchi ahvoli yana qancha vaqt davom etardi? Ehtimol, bu ba'zi hollarda yordam so'rashning yagona yo'lidir.

Zo'ravonlik qurboni bo'lgan yoki farzandlarini himoya qila olmayotgan ayrim ayollar aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qilayotgandir. Demak, bu yerda asosiy masala videoni tarqatish emas, balki uning ortidagi muammoni barvaqt aniqlash va bolani himoya qilishdir.

Umumiy mas'uliyat

Bu voqea bir oilaning fojiasi emas. U butun jamiyat uchun jiddiy ogohlantirishdir. Biz bolalarni himoya qilishni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi deb bilmasligimiz lozim. Qo'shnilar, qarindosh-urug', mahalla, ta'lim muassasasi, tibbiyot xodimlari – barchasi bola manfaatini uchun mas'uliyatni his qilishi zarur. Farzandni tarbiyalash mehr bilan boshlanadi. Zero, jazo emas, tushunish, haqorat emas, dildan suhbat, zo'ravonlik emas, mehr bolani komil inson qilib voyaga yetkazadi.

Xulosa o'rnida

Tergov yakunida mazkur holatga huquqiy baho beriladi. Ammo bir haqiqat o'zgaraydi: hech bir tarbiya usuli bolaning qadr-qimmatini kamsitish yoki unga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishni oqlay olmaydi. Bolaning ko'ngli eng nozik olamdirdir. Uni sindirish oson, ammo qayta tiklash uchun yillar talab qilinadi. Shuning uchun har birimiz o'zimizga bir savolni berishimiz kerak: farzandlarimizni qo'rquv bilan tarbiyalayapmizmi yoki mehr bilan? Chunki ertangi jamiyat bugun tarbiyalayotgan bolalarimiz qiyofasida shakllanadi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Kun mavzusi

CHO'MILISH ZAVQI FOJIAGA AYLANMASIN



Yozning issiq kunlarida bahavo suv havzalarida vaqtni maroqli o'tkazish, salqin suvda cho'milish kishiga rohat bag'ishlaydi. Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, har yili yoz mavsumida cho'milish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalar haqidagi achinarli xabarlarni eshitamiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mavsum davomida suvga cho'kish holatlarining oldini olish bo'yicha targ'ibot reydlari va profilaktik tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda. Shunga qaramay, o'tgan yili 20 nafar, joriy mavsumda esa o'n nafarga yaqin fuqaro aynan shunday baxtsiz hodisa qurboni bo'ldi. Achinarlisi, ularning aksariyatini voyaga yetmaganlar tashkil etadi.

Ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan joylarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi va uning quyi tizimlari xodimlari tomonidan ta'lim muassasalari, mahallalar hamda korxonatashkilotlarda 2540 dan ortiq profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Ularga 31 mingdan ziyod fuqarolar jalb etilib, xavfsizlik qoidalari atroflicha tushuntirildi. Maxsus eslatma-bukletlar tarqatilib, ommaviy axborot vositalari orqali 35 dan ortiq chiqishlar qilindi.

– Afsuski, targ'ibot ishlariga qaramay, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, «menga hech narsa qilmaydi» qabilida ish tutuvchilar uchrab turibdi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Salamat Jumamuratov. – Yoz mavsumi boshlanganidan buyon o'tkazilgan reydlar davomida taqiqlangan joylarda 800 nafardan ortiq fuqarolar cho'milayotgani aniqlanib, ularga nisbatan qat'iy ogohlantirishlar berildi. Maqsadimiz – beparvolikka barham berish. Ammo bu faqat ichki ishlar organlari yoki favqulodda vaziyatlar xodimlarining ishi emas, butun jamiyatning, har bir ota-onaning burchidir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Salomatlik

OVQATDAN ZAHARLANISH: salomatlikka jiddiy xavf

Bugungi kunda aksariyat insonlar tez tayyorlanadigan yoki tayyor holda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'p iste'mol qiladi. Biroq ularning sifati, saqlash sharoiti va tayyorlash qoidalariga beparvolik sog'liq uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Ana shunday xavflardan biri ovqatdan zaharlanishdir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ovqatdan zaharlanish yilning issiq fasllarida ko'proq uchraydi. Havo harorati yuqori bo'lgan sharoitda bakteriyalar tez ko'payib, mahsulotlarning buzilish jarayoni jadallashadi. Shu bois har bir inson ovqatlanish xavfsizligi qoidalarini yaxshi bilishi va kundalik hayotida ularga amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

OVQATDAN ZAHARLANISH NIMA?

Bu tarkibida kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar yoki ular ishlab chiqargan toksinlar mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari yoxud ichimlik suvini iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan o'tkir kasallikdir. Ovqatdan zaharlanishga ko'pincha noto'g'ri saqlangan go'sht va go'sht mahsulotlari, tuxum, baliq va dengiz mahsulotlari, mayonezli salatlar, sut va sut mahsulotlari, tez buziladigan tayyor taomlar, qandolat mahsulotlari sabab bo'ladi.

KASALLIKNING ASOSIY BELGILARI

Odatda uning belgilari mahsulot iste'mol qilinganidan keyin bir necha

soat o'tib paydo bo'ladi va kishida ko'ngil aynishi, qayt qilish, ich ketishi, qorin sohasida og'riq va spazmlar, tana haroratining ko'tarilishi, bosh og'rig'i va umumiy holsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Ayrim holda organizm kuchli suvsizlanib, shoshilinch tibbiy yordam talab qilinishi mumkin.

BIRINCHI YORDAM

Ovqatdan zaharlanish belgilari paydo bo'lganda:

- * kun davomida ko'proq suyuqlik iching;
- * regidratatsiya eritmalaridan foydalaning;
- * yengil hazm bo'ladigan ovqatlar iste'mol qiling;
- * shifokor tavsiyasiz antibiotiklar yoki boshqa dorilarni qabul qilmang.

Qayta-qayta qusish, yuqori harorat, kuchli ich ketishi, hushning buzilishi yoki suvsizlanish belgilari kuzatilsa,

darhol tibbiy muassasaga murojaat qilish lozim.

Eng yaxshi vosita – profilaktika

Ovqatdan zaharlanishning oldini olish uchun katta xarajat yoki murakkab choralar talab etilmaydi. Tozalikka rioya qilish, oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri saqlash va xavfsiz ovqatlanish qoidalariga amal qilish orqali o'zingiz va oilangizni ushbu kasallikdan muhofaza qilishingiz mumkin.

Zarina IBRAGIMOVA,
IIV Markaziy poliklinikasi
Shoxobcha umumiy amaliyot
shifokori.

MUTAXASSISLAR QUYIDAGI ODDIY QOIDALARGA AMAL QILISHNI TAVSIYA ETISHADI			
Qo'l gigienasiga rioya qiling. Ovqat tayyorlashdan oldin va hojatxonadan so'ng qo'llarni sovun bilan yaxshilab yuving.		Issiqlik ishloviga e'tibor bering. Go'sht, baliq va tuxum mahsulotlarini yaxshilab pishiring.	
Oziq-ovqat mahsulotlarini to'g'ri saqlang. Sovutkichda saqlanishi lozim bo'lgan mahsulotlarni xona haroratida qoldirmang.		Meva va sabzavotlarni yuving. Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan avval oqar suvda yaxshilab yuving.	
Muddatini tekshiring. Muddati o'tgan mahsulotlarni iste'mol qilmang.		Toza ichimlik suvidan foydalaning. Shubhali manbalardan olingan suvni ichmang.	
Xom va tayyor mahsulotlarni alohida saqlang. Bu bakteriyalarning bir mahsulotdan boshqasiga o'tishining oldini oladi.			

Bekajon maslahati

FOYDALI VA PARHEZBOP

Vazn tashlash uchun to'g'ri ovqatlanishga amal qilayotganlar ham ba'zan shirinlikka ehtiyoj sezadi. Yozning issiq kunlarida quyida tavsiya qilinadigan hazmi yengil va foydali muzqaymoq bilan bu istakni qondirish mumkin. Bunday parhez shirinlikni ortiqcha kaloriyalardan qo'rqmagan holda tanovul qilsangiz bo'ladi. Uni tayyorlash uchun atigi uchta mahsulot

– 300 gramm yog'li tvorog, 1 dona banan va 60–70 millilitr sut kerak bo'ladi. Barcha massaliqlarni blenderga solib, 2–3 daqiqa davomida bir xil yumshoq massa hosil bo'lguniga qadar aylantiring.

Aralashmani bir idishga solib, muzlatkichga qo'ying va bir tekis muzlashi uchun uni har 30–40 daqiqada bir marta aralashtirib turing. Oradan kamida 1,5-2 soat o'tgach, shirinlik tayyor bo'ladi. Uni maxsus idishlarga solib, ta'bingizga ko'ra meva va rezavorlar, turli siroplar bilan bezating hamda yaxna holda das-turxonga torting. Yoqimli ishtaha!



ODDIY VA SAMARALI YECHIM



Jinsi shim (yoki yubka) uzunlik qilayotgan bo'lsa, uni asl holini buzmaganda iz qoldirmay qisqartirishning oddiy usuli bor. Shimning pastki qismidagi original (asl) qaytarma manjetni saqlab qolish uchun avval kerakli uzunlik o'lchanadi.

So'ng matoning ortiqcha qismini kesib tashlab, manjet yana o'z joyiga qayta tikiladi. Keyin yaxshilab dazmol qilinsa, shim xuddi avvalgidek ko'rinishini saqlab qoladi. Bu usul yordamida jinsi kiyimlarning asl uslubini buzmaganda, ularni osongina o'zingizga moslashtirib olishingiz mumkin.

OLMA SIRKASI OSHXONADA YORDAMCHI

* Sho'rva biroz sho'r bo'lib qoldimi? Bir choy qoshiq olma sirkasi qo'shsangiz, taom mazasi me'yorlashadi.

* Qattiq go'sht u bilan marinovka qilinganda, tolalari yum-

shab, ovqatda mayin va shirin bo'lib pishadi.

* Sabzavotlarni (lavlagi, brokkoli kabi) bug'da pishirganda, olma sirkasi ularning rangi o'zgarmay, yorqin bo'lib qolishini ta'minlaydi.

* Idish yuvishda ishlatiladigan gubka va latta o'zida ko'p bakteriyalarni yig'adi. Ularni kechqurun olma sirkasi solingan suvga bo'ktirib qo'ying va tozalikka erishing.

* Muzxonada yoqimsiz hid paydo bo'lganda, kichik bir idishga olma sirkasi solib qo'ysangiz, u butun hidni o'ziga tortib oladi.

* Zanglagan, xiralashgan va kir to'plagan oshxona anjomlarini bir soat shunday sirkali suvga solib qo'ying. Qarabsizki, ularning jilosi yana o'ziga qaytadi.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.



SUVDAGI BAHSLAR

Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xotin-qizlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish hamda jamoada hamjihatlik muhitini mustahkamlash maqsadida IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan

hamkorlikda vazirlik sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o'rtasida sportning suzish turi bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

Musobaqa IIVning «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasining ochiq suzish havzasida bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilar yosh toifalari bo'yicha uch guruhga ajratilgan holda o'zaro kuch sinashdi.

Qatnashchilar nafaqat suzish mahorati, balki chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va g'alaba sari intilish borasida ham nimalarga qodirliklarini namoyon etishdi. Har bir bahs murosasiz va qizg'in kechdi. Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlarga diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

O'z muxbirimiz.



Qiziq faktlar

Ronaldino ilk marotaba 13 yoshida OAV e'tiboriga tushgan. O'shanda u bitta o'yinda 23 ta gol kiritgan.



Rejissiyor, aktyor, O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sa'diyev o'z vaqtida afsonaviy jamoa – «Paxtakor» darvozaboni bo'lgan.



Koptok bilan o'ynaladigan barcha sport turlarida to'p albatta yerga (suvga) tegishi mumkin. Ammo voleybolda buning aksi – koptok yerga tegmasligi shart, aks holda raqibga ochko beriladi.



Barcha sport turlarida vaqt albatta e'tiborga olinadi. Ammo voleybolda (tennisda ham) emas. Chunki bu sport turida vaqtga qarab emas, natijaga qarab o'ynaladi. Shimoliy Karolina shtatida bo'lib o'tgan voleybol bahsi 75,5 soat davom etgan. Bu qariyb uch yarim kun degani!

MUSTAQILLIK TENGDOSHI, TO'MARISNING IZDOSHI

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan yilda dunyoga kelgan avlod vakillari bugun turli sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan Vatanimizning munosib farzandlari ekanini namoyon etmoqda. Ana shundaylardan biri – Navoiy viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi katta mutaxassis-snayperi, katta serjant Maftuna Esanova.

U yoshligidanoq sportga mehr qo'ydi, yurtimiz bayrog'ini xalqaro musobaqalarda baland ko'tarish niyatini ko'ngliga tugdi.

Ana shunday ulkan, ezgu maqsad yo'lida sportning milliy kurash, sambo va qo'l jangi turlari bilan muntazam shug'ullandi. Tinimsiz mashqlar natijasida milliy kurash bo'yicha Turkiyada o'tkazilgan bahslarda ikki karra Jahon chempioni degan yuksak sharafiga sazovor bo'ldi. Shuningdek, qo'l jangi bo'yicha Qozon va Moskva shaharlarida bo'lib o'tgan Jahon chempionatlarida ham oltin medallarni



qo'lga kiritdi. Uning sportda erishgan yutuqlari davlatimiz tomonidan ham munosib e'tirof etildi. 2024-yilda Maftuna Esanova «To'maris» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

– Men mustaqillik tengdoshi, To'marisning izdoshi, shu Vatanning farzandi ekanimdan faxrlanaman. Davlatimiz menga ta'lim olishim, sport bilan shug'ullanishim va ichki ishlar organlari xodimlari safida samarali faoliyat yuritishim uchun barcha sharoitlarni, imkoniyatlarni yaratib bergan. Bundan buyon ham el-yurtimizning, rahbarlarimizning ishonchini oqlash uchun bor bilimimni, mahoratimni ishga solaman, – deydi katta serjant Maftuna Esanova.

Fursatdan foydalanib unga barcha jabhalarda ulkan muvaffaqiyatlar, omad va yangidan yangi zafarlar tilab qolamiz.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

DIQQAT: E'LON!

Ichki ishlar organlari tashkil etilganligining 35 yilligini munosib nishonlash, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ezgu g'oyalarni, Vatanga muhabbat, xalqparvarlik, tinchlik va osoyishtalik, millat birligi, ichki ishlar organlari xodimlarining sadoqati, jasorati va fidoyiligini badiiy ijod orqali keng targ'ib qilish, yuqori badiiy saviyadagi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi she'riy asarlar yaratilishini qo'llab-quvvatlash, ular asosida zamonaviy qo'shiqlar yaratish maqsadida Ichki ishlar vazirligi **«Jasorat va sadoqat madhi»** respublika ijodiy tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari, faxriylar, shoir va yozuvchilar, mustaqil ijodkorlar, talabalar va boshqa fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

She'riy asarlar joriy yilning 1-sentabr kunga qadar quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Toshkent shahar, Yunus Rajabiy ko'chasi, 1-uy. Indeks – 100029.

Elektron pochta: **iiv@exat.uz.**
«@PostdaUz_bot».

Tanlov g'olib va sovrindorlari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

I o'rin – I darajali diplom, maxsus esdalik statuetskasi («Jasorat va sadoqat madhi» tanlovi g'olibi), 10 million so'm pul mukofoti;

II o'rin – II darajali diplom, 7,5 million so'm pul mukofoti;

III o'rin – III darajali diplom, 5 million so'm pul mukofoti.

«Jasorat va sadoqat madhi» respublika ijodiy tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari bilan «POSTDA» rasmiy telegram kanalida batafsil tanishishingiz mumkin.



Газетамизнинг 32-сонида чоп этилган жумбоқнинг жавоби: шиша (шишасозлик технологияси). Қадимги Қубо (Қува) шаҳри шишасозлик маркази бўлган. Хитой манбаларига кўра, императорлар айнан Фарғона ва Сўғддан шишасоз усталарни чақириб, бу ноёб технологияни ўзлаштиришга ҳаракат қилганлар. Қувадан топилган шиша идишлар ва устакхона қолдиқлари бунинг исботидир.

– Nimaga yig'layapsan?
Dabdurustdan berilgan bu savol ulkan bog'ning chekka bir burchagida, ovloq joydagi kursi chetida omonatgina o'tirgan qizni seskantirib yubordi. Uning qovoqlari shishib, ko'zlari qizarib ketgan edi.

– O'zim... – dedi qiz ovoz kelgan tarafga umidvorlik bilan o'girilib, hiqillaganicha.

Qarshisida barmoqlarida bir dona qirmiz gul'uncha ushlab olgan, o'zini dadil ko'rsatishga urinayotgan xushbichimgina yigit ko'ziga juda issiq ko'rindi. Ammo harchand urinmasin, baribir, taniy olmadi.

– Odam o'zicha yig'lamaydi-yu, – yigit unga yanada yaqinlashib, qo'lidagi gul'unchani tinimsiz u yoqdan bu yoqqa aylantirganicha, gapga gap uladi.

– Nimaga yig'laydi unda?..

– Endi yig'lamaysanmi? – so'radi yigit uning yoniga o'tirayotib, past ovozda, erkalagandek.

– Yig'lab bo'ldim, – dedi qiz ham mayin jilmayib.

– Yaxshi. Ko'zing o'zi qora ekan, – dedi yigit qo'lida aylanaverib biroz uringan gul'unchani unga uzatarkan. – O'zi bu yerda nima qilib o'tirganding?

– ...

– Mayli, aytging kelmasa, aytmay qo'ya qol, – dedi yigit hafsalasi qaytganday.

– Baribir tushunmaysiz.

– Kvant fizikasi masalasimi?..

– Sizga qizig'i yo'q-ku!

– Nimaga unday deysan? Rosa qiziqdir, balki.

Dabdurustdan:

– Aylanmaymizmi? – deb yubordi-yu, yigit o'z taklifidan o'zi xijolatga tushdi. Chunki birinchi marta qiz bolaga gap tashlashi edi.

– Qayoqqa boramiz?

– O'zing nima deysan?

– Charxpalakka chiqaylik! – qiz bolalarcha quvonch bilan chapak chaldi.

– Bo'pti. Keyin qayiqda suzamy.

– Xo'p bo'ladi. Suvda sayr qilish maza... Lekin ko'lga tushib ketishdan qo'rqaman, – dedi qiz biroz junjikib.

Yigit katta ketib qo'ygandan, cho'ntagi kasalligidan izza chekib, xavotirga tusha boshladi. Shu orada xayolan

Baxtiyor NURIDDIN

BULBUL SUKUTI

Hikoya



– Bilmadim. Buni sendan so'rash kerak! – dedi yigit hayajonini yashirish uchun zo'raki kulimsirab.

– Nimam kulgili?! – chimrildi qiz. – Odam yig'lasa ham birov kuladimi?.. – U shunday deb yana hiqillay boshladi.

– Yig'lama! Nimaga yig'laysan? – qizning ko'z yoshlarini ko'rib, sarosimaga tushdi yigit.

– O'zim!..

– Jinnimisan yoki?.. – yigit toqati toq bo'lib, ovozi biroz balandlatdi.

– Yo'q.

– Unda gapir, nima bo'ldi?

– Nima foyda... – xo'rsindi qiz. – Baribir hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi.

– Foyda uchun yig'layotgan bo'lsang, to'yguningcha yig'layver, – dedi yigit piching bilan. Ammo ichida qizga achinsa-da, zardali ohangda: – Hiqillab o'tiraver. Ko'p yig'lasang, ko'zlaring qorayadi, – deb qo'shimcha qildi.

– Kim aytgan buni?! – qiz o'zini masxara qilinayotgandek sezib, asabiylashdi.

– Xalq og'zaki ijodidan. Sen chalg'ima, davom etaver. Yig'la, yig'layver...

– Yig'laydigan ahmoq yo'q! – qiz zarda aralash kaftining orqasi bilan yonoqlarini arta boshladi.

Yigit cho'ntagidan ro'molchasini chiqarib, uzatdi. Qiz indamay oldi-da, qatini ochib, yuziga bosdi.

– Siz ham boshqalarga o'xshab kulyapsiz...

– Kulmadim.

– Kuldingiz.

– Yaxshi, yaxshi. Men bora qolay bo'lmasa.

– Ketasizmi? – qizning ovozi kutilmagan xavotir sezildi.

– Shunday desa ham bo'ladi. Har qalay, biroz yupanding, chalg'iding.

– Meni kuzatib qo'yamaysizmi?

– Dangalchi ekansan-ku! – yigit kulimsiradi.

– Yigit degani qizga gul bergandan keyin kuzatib qo'yadi-da, – dedi qiz ishonch bilan boshini ko'tarib.

– Buni bilmas ekanman.

– Endi bilib oldingiz.

– Xo'p, mayli, – dedi yigit o'rnidan qo'zg'alib.

– Rozimisiz!? – yana so'radi qiz, ko'zlarini tikib. – Faqat siz ham aldang.

– Iye! Hali seni ko'pchilik aldaganmi?..

– Shunaqaroq... Hamma aldoqchi, – dedi qiz yuziga og'ir mung qo'nib.

So'ng yigitning oldiga tushib, sekin qadam tashlay boshladi. Yigit indamay uning ortidan ergashdi. «Yurish-turishidan durustgina oilada tarbiya topgani ko'rinib turibdi... Biroz tantiroqmi-kan?» deb o'yladi u.

vaziyatdan chiqish yo'lini izlab, qo'lidagi soatiga qarab oldi.

– Kechgacha hali vaqt bor, – dedi qiz uning harakatini noto'g'ri tushunib.

Bog' eshigi yonida soatning qadriga yetadigan juhud soatsoz bor. Qulay imkoniyat topsa bo'lgani – qizni besh-olti daqiqaga yolg'iz qoldiradi, xolos.

– Sen xavotir olma! – dedi u ko'zlari mo'tirab turgan qizga dadil ohangda.

Charxpalak tomon borisharkan, yo'l-yo'lakay muzqaymoq olish uchun to'xtagan yigitning yengidan qiz tortdi:

– Menga mumkinmas.

– Anginami? – dedi yigit yengil tortib. Charxpalakka chiqishdi. Eng baland nuqtaga borganda:

– Isming nima? – deb so'radi qizdan yurak yutib. U ham ko'p kuttirib o'tirmay:

– Anora, – dedi beparvogina.

– Chiroyli ism ekan.

– Sizniki-chi?

– Meniki – Botir.

– Juda mos ekan, – deb kuldi qiz qah-qah otib.

– Nimaga kulyapsan?

– Har qalay, umuman cho'chimganingizdan bilgan edim botirilingizni.

– Nimadan cho'chishim kerak edi?

– Qulab tushishdan, – dedi Anora pastga ishora qilib. So'ng o'zi qo'rquvdan biroz qunishib oldi.

Botir ham pastga ko'z tashladi-yu, beixtiyor yuragi hapriqib ketdi. Ikkovlari ham biroz jim qolishdi. Anora shabada to'zg'itgan sochlarini qulog'i orqasiga yig'ishga urinib, kutilmaganda past ovozda, mayin xirgoyi boshladi. Ohang Botirga juda tanish, yurakka yaqin edi. Osmoni falaklarda taralayotgan bu so'zi noaniq tovushlar oqimida u bolalik chog'larida qolgan unutidilarni, ranglarni, hatto, ta'mlarni tuyganday bo'ldi. Marhum oyisining yoqasidan taralgan qalampir-munchoq ishlari dimog'iga urilganday ko'ngli buzilib, ko'zlariga yosh to'ldi. Qiz ashulasini to'xtatmay, ro'molchani uzatdi. Botir xo'rsinish bilan mijjalarini artirdi:

– Ovozning juda chiroyli... shirin ekan.

Anora indamasdan osmonga tikildi. Oqshomning kulrang pardasi ortida ertaki yulduzlar miltillardi.

– Gapiring, – dedi Anora yulduzlardan ko'z uzmay.

– Nimani?

– O'zingiz haqingizda.

– Meni qo'ya tur. Sen o'zing to'g'ringda gapir, kimsan, nimasan?

– Yaqinda ko'rasiz. «Bulbulmisan, qumrimisan, namasan?» deng.

– Ko'rasiz?!.. – taajjublandi Botir.

– Ha! – dedi qiz keskin ohangda. – Faqat keyin qo'rqib, qochib ketmasangiz bo'ldi.

– Nimaga qocharkanman? Sen nima...

– dedi-yu, Botirning yuragiga noayon g'ulg'ula tushdi.

Ular pastga enib, nazoratchi kabina eshigini ochishi bilan Anora sakrab chiqa solib, gavjum odamlar orasiga qarab chopib ketdi. Botir ham beixtiyor unga ergasharkan:

– To'xta, qayoqqa? – deb baqirdi va ovozi o'zidan boshqa hech kim eshitmayotganini angladi.

Botir birdan qiz osmonga uchdimi yo yer qariga kirdimi, tushuna olmay qoldi. U bir zumda ko'z o'ngidan g'oyib bo'lgan edi.

Birozdan keyin: «Anora... Anora... Anora!..» degan hayqiriqlar va qarsaklar bog'ni tutib ketdi. Botirning ro'parasidagi tomosha sahnasida qo'lida dutor bilan o'sha sirli qiz jimgina bosh egib turardi. Botir ko'zlariga ishonmadi.

Qiz sahna o'rtasida, oy shu'lasida boshini ko'tarib, tomoshabinlarga ma'yus termildi.

Xuddi kimnidir izlayotgandek, hayajonli nigohi bilan atrofga birma-bir qarab chiqdi. Botir: «Meni qidiraypti», deb o'yladi va odamlar orasidan qo'llarini baland ko'tarib, «Shu yerdaman!» degandek ikki-uch marta silkidi. Qiz pinak buzmad. Aksincha, bir nuqtaga tikilganicha jim turib qoldi. «Meni ko'rди», deb pichirladi yigit.

Shu payt olomon ichidan qiy-chuv ko'tarildi. Anora ohista dutor chertdi. Kuyga hamohang ravishda yana o'sha – charxpalakda xirgoyi qilgan – mahzun qo'shig'ini ayta boshladi... Shu zahoti atrofga suv quygandek jimjitlik cho'kdi. Botir negadir o'zidan xijolat bo'lib, dovdiraganicha atrofga qaradi: ba'zilar ko'z yoshlarini artib, piqillab yig'lardi.

(Davomi kelgusi sonda)



Kulaymi, kuyaymi?..

Shinamgina xonada yetti yoshli Rustam planshetda elektron o'yin bilan band. U shu qadar berilib ketganki, hayajonini jilovlay olmay, vaqti-vaqti bilan baqirib yuboradi: «Mana senga, mana... A-ha, qo'lga tushding-ku! Mana, mana!..»

Oshxonada esa Rustamning onasi telefonida sho'x kuy eshitib, musiqa ohangiga mos harakatlar bilan ovqat pishiryapti. Shu payt eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Ayol qo'llarini sochiqqa arta-artatib eshikni ochdi. Ishdan charchab, ammo kayfiyati chog' qaytgan ota uyga kirib keldi.

– Assalomu alaykum, dadasi, yaxshi keldingizmi?

– Vaalaykum assalom. Mana, o'g'ilchamizning buyurtmasi...

U qo'lidagi qog'ozga o'ralgan buyumni xotiniga tutqazarkan, atrof-ga alangladi:

– Toychog'imiz qani? Nega dadajonisini kutib olishga chiqmayapti?


– Ey, boyadan beri «darsingni qilib ol!» desam, «hozir, ozgina qoldi» deb planshetidan boshini ko'tarmaydi.

Ota uzoqdan o'g'lini kuzatib, unga havas bilan boqdi:

– Ha, hozirgi zamonning bolasi-da, – deb qo'ydi iljayib.

ZAMONAMIZ BOLASI

Hangoma



Kechki ovqatdan so'ng ota o'g'lining o'qishlari bilan qiziqdi:

– O'g'lim, o'qishlaring yaxshimi, qiynalmayapsanmi? Maktabda nima gaplar?

– Ha, hammasi yaxshi, dada.

– Ona tili, matematika darslari qiyinlik qilmayaptimi?

– Yo'q, matematikadan ham, ona tilidan ham baholarim besh.

– Meni juda xursand qilding, o'g'lim. Seni bir imtihondan o'tkazsam maylimi?

– O'tkazavering, dada.

Ota o'g'lini sinash uchun qulayroq joylashib oldi:

– Mana, qara, senda beshta olma bor. Men senga yana ikkita olma berdim. Shundan so'ng o'rtog'ing Aziz kelib, sendan uchta olmani olib ketdi. Senda nechta olma qoldi?

Rustam otasiga ko'zlarini katta qilib, javob berolmay jim bo'lib qoldi. Bundan taajjurlangan ota masalani yana qaytadan tushuntirdi. Biroq bola avvalgidek turaverdi. Bu holat

bir necha bor takrorlangach, otaning sabri tugab, jahli chiqib boshladi:

– Nahotki, shuni bilmasang? Axir, oppa-son masala-ku! Maktabda nimani o'rgatishyapti o'zi, tushunmay qoldim...

Oshxonada idish-tovoqlarni yuvayotgan ona gapga aralashdi:

– Hay-hay, dadajonisi, nimaga jahlingiz chiqadi? Bunaqada bolaning yuragini yorvorasiz-ku. Namuncha qiynamasangiz?

– E-e, «matematikam besh» deb meni aldagan ekan. Oddiygina masalani yecholmayapti.

– To'xtang, hozir... Rustam, menga qara, – ona o'g'lining yoniga keldi. – Senda besh ming so'm pul bor. Dadang yana ikki ming so'm berdilar. Shunda o'rtog'ing Aziz kelib, sendan uch ming so'm qarz oldi. Senda necha so'm qoldi?

Rustamning yuzi yorishib, ko'zlari porlab ketdi:

– Iye, shunaqa demaysizlarmi?! To'rt ming so'm qoladi!

Ona mamnun qiyofada eriga qarab, shunday dedi:

– Zamonamiz bolasi-da...

Ota ko'zlarini baqraytirgancha, nima deyishga so'z topolmay qoldi.

G'ayratulla SHUKUROV.


Shohona she'riyat



Xotira. U insonga berilgan ne'matlar ichida eng keraklisi. Usiz yashab bo'lmaydi. Bu – aksioma! Daho shoir Abdulla Oripovning «Xotirot» she'rini tinglarkansiz, ayni shu xulosaga kelasiz. She'r sizni uzoq-uzoqlarga – xotiralariga «olib ketadi».



Donolar so'zlaydi, biz yodga solamiz



So'z – gazetxonlarga

HAMMAMIZNING
GAZETAMIZ!

«Handalak» hajviy ko'rsatuv orqali xalq olqishiga sazovor bo'lgan taniqli o'zbek qiziqchisi, so'z ustasi Ortiq Sultonovning «Postda-Ha nocty-At the post» gazetasi haqidagi o'z fikr va mulohazalari.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrirlar

Erkin SATTOROV

Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r

23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va

moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

460010860262877031101179003

STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2350.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3.

Hajmi – 6 bosma taboq.

50746 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.